Figure 2. The gas of a car engine running on compressed gas supply system.

1-gasoline pump, 2-gasoline filter solenoid valve, 3-carburetor-mixer, 4-inlet pipe, 5-gas transfer hose to carburetor-mixer, 6-gasoline filter-quencher, 7-cylinder-to-heater transfer pipeline, 8-consumer valve, 9-filling valve, 10-high pressure manometer, 11-cylinder connecting pipe, 12-section connecting pipe, 13-rear section of cylinders, 14-front section of cylinders, 15-gasoline tank, 16-gas filter electromagnetic valve, 17-high-pressure reducer, 18-passing pipe from filter to low-pressure reducer, 19-low-pressure manometer, 20-low-pressure reducer, 21-tube barrier with vacuum, 22-salt walking pipe, 23 rdengine

In winter, the reducer is additionally heated with the liquid in the engine's cooling system. In the high pressure space of the reducer, the pressure of the gas decreases to 9-12 kg/cm². When the electromagnetic valve is activated, the gas enters the inlet of the low-pressure two-stage reducer, and the gas pressure drops to atmospheric pressure. The reducer is equipped with a metering enrichment structure, and with the help of this structure, a specified amount of gas is passed through the tube and entered into the two-part carburetor mixer. This carburettor has 3 independently operating single stroke systems.

One of them is designed for gas and the other for gasoline. There is a disc-shaped reverse valve at the gas inlet of the carburetor mixer, which closes at 1000-2000 rpm of the crankshaft and gaseous fuel enters the engine. When the opening position of the throttle is increased, the valve opens and the gas enters the carburetor-mixer through the annular hole and mixes with the air coming from the air cleaner at the level of the diffuser.[5]

The operation of the gas system is controlled by low and high pressure manometers. To ensure the operation of a car with a gas cylinder on gasoline, a gasoline tank, coarse cleaner, an electromagnetic fine cleaner, a gasoline pump, a carburetor, and gasoline transfer tubes are installed in the system.[4]

Gas cylinder equipment used in cars was reviewed above. Gas cylinders for liquefied gases have a working pressure of 16 kg/cm² and weigh 7-8 kg, while gas cylinders for compressed gases have a working pressure of 200 kg/cm² and a weight of 50-90 kg. Reducing the weight of gas cylinders used in cars is an urgent issue.[24]

REFERENCES:

[1].Turaev Shoyadbek, Rakhmatov Sukhbatillo. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation. Asian Journal of Multidimensional Research.2022.№11.P.34–38.DOI: <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2022.00039.8>

[2]. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation

SA Turaev, SMO Rakhmatov - Asian Journal of Multidimensional Research, 2022

[3]. To'ychiyev X., Soliyev B. Prospects for the use of polymeric materials in machine parts //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 5. – С. 151-156.

[4] S Turayev, X Tuychiyev, T Sardor, X Yuldashev The importance of modern composite materials in the development of the automotive industr - Asian Journal of Multidimensional Research(AJMR),2021

[5] Turaev Shoyadbek Ahmadjonovich.Aminboyev Abdulaziz Shukhratbek ogli . Light automobile steel wheel manufacturing technology. Asian Journal of Multidmesijal Research.18-23.2022

[6]. A Nozimbek, T Khasanboy, T Elbek, U Sardor IMPROVEMENT OF PHYSICALAND MECHANICAL PROPERTIES OF PLASTIC PARTS USED IN MACHINE BUILDING-Universum:технические науки, 2021.

[7].Ziyamuxamedova U. A.,Nuridinov M.A.,Bakirov L. Y. MASHINASOZLIKDA QO‘LLANILADIGAN POLIFUNKSIONAL GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR UCHUN BOG ‘LOVCHI TO ‘LDIRUVCHILARNI TANLASH VA ASOSLASH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.–2021.–Т.1.–№.4.–С.768-772.

[8]. ZIYAMUKHAMEDOVA, U. A., BAKIROV, L. Y., SOBIROV, B. A., & MUXITDINOV, Z. N. (2018). INVESTIGATION OF INFLUENCE OF FILLERS ON THE PROPERTIES OF COMPOSITE POLYMERIC MATERIALS OBTAINED WITH THE USE OF SOLAR ENERGY. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING, 2018(2), 7.

[9]. Икромов Н. А. Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий //Вестник Курганского государственного университета. – 2015. – №. 3 (37). – С. 96-99.

[10].Икромов Н.А.ИССЛЕДОВАНИЯ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ РАДИАЦИОННО МОДИФИЦИРОВАННЫХ ЭПОКСИДНЫХ КОМПОЗИЦИЙ И ПОКРЫТИЙ НА ИХ ОСНОВЕ //Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии. – 2021. – С. 59.

[11]. Нурдинов М. и др. БЕЗОПАСНЫЕ ПАРКОВОЧНЫЕ МЕСТА ДЛЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ГРУЗОВИКОВ МЕТОД УПРАВЛЕНИЯ НА ТРАНЗИТНЫХ ДОРОГАХ //Models and methods in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 15. – С. 148-157.

[12]. Mamasoliyev B., Abdusattarov N. EFFICIENT MOVEMENT FOR CARGO TRANSPORTATION DETERMINATION OF CONTENT//Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022.

(95). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13149>.

[13]. Рузиматов М.А., Рахматалиев Н.Н., Худойбердиев В.М. Обеспечение надежной работы компрессионного кольца //Universum: технические науки : электрон.научн.журн.2021.3(84).URL:

<https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11384>(дата обращения: 25.03.2021).

[14]. Шукуров М. М. и др. ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ ИНДЕКС “БЕЗОПАСНЫЙ ПУТЬ” ПО ОЦЕНКЕ СОСТОЯНИЯ //Новости образования:исследование в XXI веке.–2022.–Т.1.–№.3.–С.801-808.

[15].lgamberdiev, A. K., Muqimova, D. K., Usmanov, E. Z., & Usmanova, S. D. (2022). Influence of the thickness of the roller discs of the combined machine on the indicators of their work during the processing of plowed lands afterwards. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 954, No.1,p.012001). IOP Publishing.

[16]. Алматаев О. Т. и др. Оптоэлектронные преобразователи рефлексивного типа для автоматизации жидкостных и газовых поверочных расходомерных установок. – 2014. – №. 8. – С. 27-34.

[17] Хамдамов Б. М. и др. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ ОПТОЭЛЕКТРОННЫЙ ПРИБОР ДЛЯ КОНТРОЛЯ РАСХОДА ВОДЫ В ОТКРЫТЫХ КАНАЛАХ //Наука.Образование.Техника.–2015.–№.2.–С.72-82.

[18] Жумаев О. А. и др. Задачи разработки и проектирования оптоэлектронных преобразователей для газомерных установок //Вестник Курганского государственного университета.– 2015. – №. 3 (37). – С. 113-116.

[19]. Азимов Р. К. и др. Морфологический метод структурного проектирования оптоэлектронных преобразователей на основе полых и волоконных световодов (ОЭГВС) //Современные материалы, техника и технологии в машиностроении». III Международная научно-практическая конференция. – 2016. – С. 15-19.

[20] Kholmatov U. THE POSSIBILITY OF APPLYING THE THEORY OF ADAPTIVE IDENTIFICATION TO AUTOMATE MULTI-CONNECTED OBJECTS //The American Journal of Engineering and Technology.–2022.–Т.4.– №. 03. – С. 31-38.

[21].Turaev Shoyadbek, Rakhmatov Sukhbatillo. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation. Asian Journal of Multidimensional Research.2022.№11.P.34–38.DOI: <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2022.00039.8>

[22] Giyasidinov, A. S., et al. "E-CMR-an impulse to innovative development of the transport industry."IEJRD-International Multidisciplinary Journal 5.4 (2020).

[23]. 1. Шипулин Ю. Г. и др. Оптоэлектронный преобразователь для автоматических измерений перемещений и размеров //Мир измерений. – 2013. – №. 1. – С. 41-43.

[24]. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges IN Avazbekovich, TS Ahmadjonova, AA Valerevich - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary ..., 2020

XALQARO IJTIMOY TA'MINOT SOHASIDA FUQAROLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MUAMMOLARI

Qo'ziyev Sarvar Mirsalim o'g'li

Toshkent Davlat yuridik universiteti 4 kurs Xususiy huquq fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro darajada ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarning va qariyalarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoya masalasi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birgalikda jahon miqyosida qariyalarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoya tizimi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy ta'minot, Ijtimoiy himoyaning subyektlari, Moddiy yordam, Mahsulot hisobidagi yordam, Samarali bandlik siyosati, Ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish, Skandinaviya modeli, Britaniya modeli, O'rta yer dengizi modeli*

XX asrning 70-yillariga kelib ijtimoiy yo'naltirilgan umumfarovonlik davlati g'oyasi taraqqiy etgan davlatlarda mustahkam mavqeyi egallab, ijtimoiy himoya yanada saxiy ko'rinishga ega bo'la boshlaydi. Zero, bu vaqtga kelib rivojlangan davlatlarda ish haqiga nisbatan ko'mak pullarining miqdori oshirildi. Ko'mak pullari oluvchilarga qo'yiladigan talablar qisqartirildi. Mehnat huquqi yanada mustahkamlanib, imtiyozlar doirasi kengaytirildi.

Ijtimoiy himoyaning mohiyatini ochib berishdagi keyingi sharhlarda ushbu tushunchani o'zgacha anglash taklif etilgan. Jumladan, N.Volginning fikriga ko'ra, «Ijtimoiy siyosat – jamiyatning sinflari, qatlamlari, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy jamoalarni tashkil qiluvchi guruhlarining mavjud ijtimoiy ahvolini saqlab turish yoki o'zgartirish borasidagi o'zaro munosabatini aks ettiradi.». Albatta, ijtimoiy himoya huquqiy va moliyaviy institutlar tizimidan iborat bo'lib, ularning maqsadli vazifalari qariyalar, nogironlar, bemorlar, ishsizlar, boquvchisini yo'qotgan hamda muhtoj oilalarni moddiy, tibbiy va boshqa yordam turi bilan ta'minlashdir. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat, nodavlat va biznes tuzilmalari o'zaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

P.Larok «Yuritilayotgan ijtimoiy himoya ma'lum davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi», – deydi. Bizningcha ham, davlatning moliyaviy imkoniyatlari ijtimoiy himoya tizimining saxiy shakllarini joriy etish va daromadlarni qayta taqsimlash yo'li bilan insonga xos turmush tarzini o'rnatish kafolatini beradi.

S.Smirnov va T.Sidorinalar o'rganilayotgan muammo yuzasidan yirik ilmiy tadqiqotlar olib borib, «Ijtimoiy siyosat – davlat muassaslari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar tomonidan jamoatchilik fikrini e'tiborga olgan holda jamiyatni rivojlantirish maqsadida davlatning ijtimoiy strategiyasini shakllantiruvchi hamda fuqarolarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ehtiyojlarini qondirish uchun muvofiq shart-sharoitlarni yaratish, fuqarolarning turmush darajasi sifatini oshirish, shuningdek,

qarorlar qabul qilish hamda ularning amaliyotiga qaratilgan chora-tadbirlar, xattiharakatlarning majmuasidir», – deb ta’kidlaydilar. Zotan, ishsizlik, kambag’allic, muhtojlik, kasallik, mehnat qobiliyatini yo’qotish kabi ko’plab holatlar ijtimoiy barqarorlikka taxdid soluvchi muammolardir. Xuddi shunday vaziyatga tushgan qatlamlarni ijtimoiy himoya orqali mavjud muammolarni bartaraf qilish davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalari, institutlarining birlamchi maqsadi hisoblanadi. Biz mazkur talqin ijtimoiy himoyaning asl mohiyatini o’zida aks ettiradi deb hisoblaymiz va uni qo’llab-quvvatlaymiz.

«Sosialnaya ensiklopediya» kitobida ijtimoiy siyosat tushunchasi ostida o’rnatilgan tartiblar, me’yorlar, qadriyatlardan kelib chiqib, jamiyatning har bir a’zosini ehtiyojlarini qondirish va ro’yobga chiqarishning qulay shart-sharoitlarini yaratish nazarda tutiladi. Zero, inson va uning ehtiyojlari ijtimoiy himoyaning obyekti, maqsadi va vazifalaridir.

Keyingi ta’riflardan nisbatan dolzarblari V.Kukushin tomonidan bildirilib, uningcha, «Aholining ijtimoiy himoyasi jamiyatni ijtimoiy boshqaruv tizimining muhim bo’g’imlaridan biridir». Sababi, aholining qay darajada ijtimoiy himoyalanganligi ma’lum ijtimoiy kayfiyatni shakllantiradi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarga o’z ta’sirini o’tkazadi.

Ijtimoiy ta’minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo’lgan va boquvchisini yo’qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko’rsatish bo’yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog’i hisoblanadi. Ijtimoiy ta’minot to’g’ridan-to’g’ri davlat byudjetidn ajratiladigan mablag’lari, turli jamg’arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy ta’minot miqdori va taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me’yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi.

Keksalik bo’yicha, nogironlik bo’yicha, boquvchisini yo’qotganlik bo’yicha va nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg’iz nogiron va keksalarga nafaqa to’lovlari Ijtimoiy ta’minotning eng muhim turlari hisoblanadi.

O’zbekistonda ijtimoiy ta’minot tizimi XX asrning 20-yillari boshidan shakllana boshlangan. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng

90-yillar boshidan bozor munosabatlariga o’tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa no-chor guruxlarni aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi, pensiya jamg’armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi.

O’zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida"gi 1993 yil 3 sentabr dagi Qonunida pensiyalar miqdori mehnat staji va o’rtacha ish haqita yanada uzviy bog’landi. Pensiya va ijtimoiy nafaqalar tushunchalariga aniq pik kiritilib, pensiya — mehnat stajiga ko’ra qo’lga kiritilgan huquq, ijtimoiy nafaqa esa muhtojlarga davlat tomonidan ko’rsatiladigan yordam deb belgilab qo’yildi. Ijtimoiy ta’minotning anchagina qismi ayrim toifadagi fuqarolarga imtiyozlar berish, ularni umumiy qoidalarning talablari va majburiyatlaridan to’liq yoki qisman ozod qilishdan iborat. Hozirgi davrda 1,2 mln.dan ortiq pensionerlar va nogironlar 18 turdagi imtiyozlar ya’ni shifokor retseptiga

asosan bepul dori-darmon olish, protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlanish, nogironlar aravachalari olish, avtomashina benzini uchun tovon puli olish, mol-mulk, yer soligidan ozod etishdan foydalanmoqda, har oyda ularga me'yorlangan har xil oziqovqat va kir yuvish vositalari bepul yetkazib beriladi.

Keyinchalik, qator olimlar T.Maltus va G.Spenserning ijtimoiy himoyaga bergan baholarini inkor etadilar. Jumladan, A.Smit «Xalqlarning boyligi ikki muhim shart-sharoit, birinchidan, tegishli xalq o'z mehnatini qo'llay olishda qanchalik mohir va topqirligi, ikkinchidan, ishlab chiqarishda band bo'lganlar va mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlar sonining mutanosibliigi bilan

belgilanadi. Sivilizatsiyali xalqlarda ko'pchilik bevosita ishlab chiqarishda band bo'lmasa-da, umumdavlat farovonligi hisobidan yaxshi turmush kechiradilar», – deydi. Darhaqiqat, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning haq-huquqlarini himoyalash, ularga munosib turmush tarzini kafolatlash zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, moddiy ne'matlarning oqilona taqsimoti turli qatlamlarning mavjud ahvolidan qat'iy nazar davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalanishiga xizmat qiladi va biz mazkur fikrni qo'llabquvvatlaymiz.

G'arb davlatlaridagi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqyealar inson va uning shaxsiy erkinligi, haq-huquqlari oliy maqsad ekanligi to'g'risidagi g'oyalarning yoyilishiga turtki bo'ldi. Endilikda, oilaviy-jamoaviy g'amxo'rlik munosabatlariga putur yetib, ijtimoiy muhofazaning davlat miqyosidagi yangi ta'limotlari ishlab chiqila boshlandi. Ilk bor XVIII asrning 60-yillarida Buyuk

Britaniyada fabrika-zavodlarda band bo'lgan mehnatkashlarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'urtalash tizimi joriy ettirildi. Mazkur asrning 80-yillarga kelib xuddi shunday qonunchilik hujjatlari Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi davlatlarda ham qabul qilina boshlandi.

XX asr oxiriga kelib Germaniyada ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'urtalash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Uning tarkibiga kasallikdan, nogironlik va qarilikdan hamda ishlab chiqarishning zararli oqibatlar va baxtsiz hodisalardan muhofazalash to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kirar edi. Ko'rib turganimizdek, ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida umummilliy, umumjahon, umuminsoniy ahamiyat kasb etib borishi rivojlangan Farb davlatlari tajribasiga xos bo'lib, aynan, XIX asrning 80-yillaridan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni davlat ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va qonunchilik asoslarini shakllanishining birinchi bosqichi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichi esa, XX asrning 20-yillari oxiri – 60-yillari boshlarini o'z ichiga olib, I va II Jahon Urushlarida yo'qotilgan ulkan inson zahiralari umumjahon hamjamiyatining oldiga inson omiliga jiddiy yondashuv va e'tibor bilan munosabatda bo'lish, aynan, mukammal ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarining umumbashariy mezonlari, tamoyillarini, yo'nalishlarini ishlab chiqish ehtiyojini ko'ndalang qo'ydi. Ushbu maqsadda, 1927-yilda qator davlatlar Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmasiga birlashdilar. Uyushma aholini ijtimoiy muhofazalash sohasida jahon

miqyosida yalpi siyosatni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanib, uning faoliyati natijasida ijtimoiy himoyaning shakllari, mexanizmlari, usullarining zamonaviy asoslari yaratildi.

Ijtimoiy himoyaning bosh mezonlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarining globallashuvi natijasida 1935-yilda AQShda chop etilgan «Himoya to'g'risidagi hujjat» da ijtimoiy muhofaza atamasi ilk bor qo'llanildi. 1938 yilda esa, Yangi

Zelandiyada chiqarilgan «Ijtimoiy muhofaza to'g'risidagi hujjat» da ijtimoiy muhofaza tegishli sohaga xos atama sifatida ta'riflandi.³ Xullas, umumsosialogik ma'noda ijtimoiy himoya atamasi G'arbda har bir fuqaroni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat chekishdan, kasallik, farzand tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishi yoki kasb kasalligiga yo'liqqanda, nogironligi, qariligi, boquvchisidan ajralganligi uchun daromaddan mahrum bo'lishi yoki uning keskin kamayib ketishidan himoya qilish chora-tadbirlarini belgilash tartibi sifatida keng qo'llanila boshlaydi.

Keyinchalik ijtimoiy himoya tushunchasiga yangicha yondashuvni U.

Beveridj 1942 yil o'zining «Erkin jamiyatda to'laqonli bandlik» deb nomlanuvchi Angliya parlamentidagi ma'ruzasida keltirib, ijtimoiy himoyaning zamonaviy mohiyatini ochib berish bilan birga uni amalga oshirishning mas'ul subyektlaridan biri davlat ekanligini asoslab beradi. Uningcha, ijtimoiy muhofaza tizimi davlat miqyosida aholining barcha qatlamlari uchun yalpi holda amalga oshirilishi shart. Ingliz hukumati U.Beveridjning taklif va tavsiyalaridan unumli foydalanib, 1944-

1948-yillar mobaynida jahonda birinchilardan bo'lib yalpi ijtimoiy muhofaza tizimining qonunchilik asoslarini yaratdi.

Shuningdek, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining bu boradagi faoliyatining qonunchilik asoslari yaratila boshlandi. Aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalashda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning ishtiroki natijasida turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashuvi sodir bo'ldi. O'z o'rnida, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhofaza o'ziga xos tizim sifatida davlat ichki tuzilmasining takomillashuviga va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligi ta'minlanishining omili sifatida rivojlanib bordi.

Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'z xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lishiga qaramasdan, ushbu ehtiyojlarni qondirish borasidagi imkoniyatlari teng emas. Sababi, har bir jamiyatda bevosita ishlab chiqarish bilan band bo'lgan mehnat qobiliyatiga ega kishilar qatorida, o'zini-o'zi moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyati cheklangan ijtimoiy nochor qatlamlar ham mavjuddir. Aynan mana shunday qatlamlarning insonga xos turmush tarzini kafolatlash, ularning iste'molchilik qobiliyatini oshirish, jumladan, mehnat munosabatlarini tartibga solish, daromadlar, ish haqi siyosati, nafaqa va aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy madad bilan ta'minlash mas'uliyati bevosita davlat, nodavlat va xususiy soha faoliyatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi.

Sosialogiyada ushbu masalaga turlicha qarashlar bo'lib, eng avvalo, jamiyatda ojiz qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambag'allik, tengsizlik va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, fanning

asoschilaridan E.Dyurkgeym (1858-1917) ning fikricha, «Zamonaviy jamiyatlarda o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, natijada sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda». Buni u anomiya hodisasi bilan izohlab, unga ko'ra, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individning mavjudligidan maqsad yo'qligini his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun muallif jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi. Uning ishini mehnat sosiologiyasi fani vakillaridan E.Meyo ham davom ettirib, nooqilona mehnat taqsimoti va boshqaruvning byurokratik usuli natijasidagi anomiya individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan hodisalar ijtimoiy muhitni murakkablashtirib, shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizningcha, yolg'iz shaxsning mustaqil holda hayotiy muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega emasligi uni solumning ajralmas qismiga aylantiradi hamda uning salbiy ta'siridan himoyalanmaganlik hissini keltirib chiqaradi.

J.Gelbreyt adolatli jamiyat mohiyatini o'rganar ekan, uning asosida daromadlarning oqilona taqsimoti yotishini aniqlaydi. Ammo, bizga ma'lumki, zamonaviy bozor iqtisodiyotida moddiy boylik va daromadlar taqsimoti bir tekis emas. Ijtimoiy himoya tushunchasining mohiyatini ochib berishdagi ilk fikrlardan biri Svidenkinning «Ijtimoiy siyosat» kitobida bayon etilib, unda muallif ijtimoiy himoyani «Butun jamiyatga taalluqli bo'lgan muammolarni hal etishga doir ijtimoiy harakatlarning amalga oshirilishidir», – deb baholaydi. Ijtimoiy so'zining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamoaviy so'zining sinonimi bo'lib, ijtimoiy siyosat deyilganda bevosita – jamoaviy siyosat anglashiladi.

AQShda F.Ryotlisberg, M.Follettlar tomonidan asos solingan «Insoniy munosabatlar» maktabi namoyondalari ta'limotiga ko'ra, ijtimoiy ehtiyojlar va qadriyatlarining kafolatlanganligi ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu ta'limot mehnat sosiologiyasi va psixologiyasidagi muhim bosqich bo'lib, uning asoschilari F.Teylorning «Iqtisodiy inson» nazariyasini, ya'ni, inson iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi mexanizmlardan biri va uni moddiy manfaatlar yordamida boshqarib borish mumkinligi g'oyasini rad etadi. Zero, ijtimoiy himoya tamoyillaridan biri insonning nafaqat moddiy, balki, ma'naviy ehtiyojlarining uyg'unlikda qondirilganligidadir.

Ijtimoiy himoya nazariyasini yaratishdagi yirik ishlardan birini olimlardan L.Ryustov, V.Ryopke, F.Byole, V.Oyken va G.Grossman-Dertlar XX asrning 30-

yillari oxirida amalga oshiradilar. Ular «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasini ishlab chiqib, jamiyat iqtisodiy hayotidagi yutuqlarga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan erkin bozor tuzilmasini shakllantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar. Zotan, ijtimoiy bozor xo'jaligining mohiyati ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi va ijtimoiy himoyaning ustuvorligi g'oyasiga asoslanganligidadir. Mualliflarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, mamlakatimizda bugungi kunda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra ushbu nazariyaga mosligini qayd etib o'tish joiz. Bu kabi nazariyalardan biri «Umumfarovonlik davlati» nomini olib, unda ijtimoiy himoya tizimining

taraqqiy etganligi davlat byudjetidan sohaga ajratilayotgan xarajatlar ulushining miqdori va ijroiya hokimiyatning mas'uliyatiga bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Nazariy jihatdan umumfarovonlik davlatida fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiy etgan bo'lib, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy huquqlarini himoyalash davlatning ustuvor maqsadi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, biz sobiq sovet ittifoqi tajribasidan bilamizki, ijtimoiy sohaning to'liq davlat tasarrufida bo'lishi va soha muammolarini hal qilishda boshqa tuzilmalar ishtirokining sezilarsizligi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy himoya tabiatining o'zgaruvchanligini P.Kuusi o'zining «60-yillar uchun ijtimoiy siyosat» asarida ko'rsatib beradi va «Agarda avvallari ijtimoiy himoya «ojizlar» va «muhtojlar»ga madad ma'nosini anglatgan bo'lsa, endilikda u butun jamiyat, davlatni qamrab oluvchi milliy iftixorga aylandi», – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, barcha qadriyatlar, institutlar singari ijtimoiy himoya ham turli davrlarda o'zgacha mohiyat kasb etib kelgan. Uning tamoyillari, mezonlari va shakllari tegishli davlat taraqqiyoti yo'nalishlariga bog'liq holda takomillasha borgan.

Ijtimoiy himoyaning mohiyatini ochib berishdagi keyingi sharhlarda ushbu tushunchani o'zgacha anglash taklif etilgan. Jumladan, N.Volginning fikriga ko'ra, «Ijtimoiy siyosat – jamiyatning sinflari, qatlamlari, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy jamoalarni tashkil qiluvchi guruhlarining mavjud ijtimoiy ahvolini saqlab turish yoki o'zgartirish borasidagi o'zaro munosabatini aks ettiradi. Albatta, ijtimoiy himoya huquqiy va moliyaviy institutlar tizimidan iborat bo'lib, ularning maqsadli vazifalari qariyalar, nogironlar, bemorlar, ishsizlar, boquvchisini yo'qotgan hamda muhtoj oilalarni moddiy, tibbiy va boshqa yordam turi bilan ta'minlashdir.» Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat, nodavlat va biznes tuzilmalari o'zaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

P.Larok «Yuritilayotgan ijtimoiy himoya ma'lum davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi», – deydi. Bizningcha ham, davlatning moliyaviy imkoniyatlari ijtimoiy himoya tizimining saxiy shakllarini joriy etish va daromadlarni qayta taqsimlash yo'li bilan insonga xos turmush tarzini o'rnatish kafolatini beradi. Ijtimoiy himoya tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o'rgangan K. Saidov, A. Xazratqulov va L. Xalikova¹larning fikrlariga ko'ra, ijtimoiy himoya ijtimoiy-iqtisodiy munosabat sifatida jamiyat va aholi o'rtasidagi muhtojlik hollarida yordam, qariyalarga ko'maklashish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ahvolni yaxshilash, hayotiy zarur vositalar bilan ta'minlash kabi munosabatlar majmuasidan iboratdir. Xullas, tadqiqotimiz davomida o'rganilgan nazariyalar va ilmiy talqinlardan kelib chiqib, keng ma'noda ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy ta'limoti sifatida, ijtimoiy zahiralarni qayta taqsimlash orqali jamiyatning strategiyasi va maqsadlarini aniqlab beruvchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kafolatlar tizimidir, deyishimiz mumkin. Bunda mehnat qobiliyatiga ega kishilarga shaxsiy ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va tadbirkorligi natijasida daromadga ega bo'lishlari, ijtimoiy nochor qatlamlarga esa iste'molchilik savati qiymatiga ko'ra eng kam miqdordagi turmush darajasi bo'yicha belgilangan mablag' bilan ta'minlanishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Ijtimoiy himoya tor ma'noda jamiyatning turli

qatlamlarining ijtimoiy ehtiyojlari, bandlik, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti, ta'lim va hokazo sohalarida qarorlar qabul qilish va tegishli choratadbirlarni amalga oshirilishidir. Shuningdek, tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan himoyalash va aholiga munosib turmush tarzini yaratib berishga qaratilgan ko'p qirrali, keng qamrovli huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy-ma'naviy faoliyat yo'nalishidir.

Ijtimoiy himoyaning subyektlari – turli darajadagi qonunchilik va ijroiya hokimiyatlari, davlat va nodavlat sohalaridagi ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, o'zini o'zi boshqarish organlari kabi institutlardir. Ular davlat ijtimoiy siyosatini shakllantirish va ro'yobga chiqarilishida faol ishtirok etadilar. Obyekti esa – tegishli mamlakat aholisi. Bosh maqsadi – insonlarning ijtimoiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun munosib turmush tarzi, shart-shariotlarni yaratib berish, yordamga muhtoj alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlashdir. Zotan, aholining barcha qatlam va guruhlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ijtimoiy himoya jamiyat hayotining barqarorligini, birdamligini, mo'tadilligini ta'minlaydi va barqaror ijtimoiy-ruhiy vaziyatni saqlab turadi.

Ijtimoiy himoya tizimi davlatning siyosiy, iqtisodiy, demografik, hattoki ekologik siyosatiga bevosita bog'liq tarzda rivojlanadi. Xususan, siyosatchilar saylovlarda g'alaba qilish uchun o'z saylovchilariga ijtimoiy sohada islohotlarni va'da qiladilar va ularni ro'yobga chiqarishga intiladilar. Natijada ijtimoiy himoya tizimi takomillashtiriladi va yangiliklar joriy ettiriladi. Iqtisodiyotda milliy daromadning mavjud darajasi bilan ijtimoiy ta'minot tizimining imkoniyatlari doirasi belgilab beriladi. Demografik vaziyat nuqtai nazaridan aholi soni o'sib borayotgan davlatlarda bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lsa, rivojlangan davlatlarda aholining qarib borayotganligi sababli pensiya ta'minoti va ijtimoiy xizmat turlarini qo'llanilishi kuzatiladi. Ekologik muammolar va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida aholi salomatligining yomonlashuvi ijtimoiy himoyaga muhtoj yangi qatlamlarni shakllantiradi. Davlatning strategik maqsad va vazifalariga mos tarzda ma'lum ijtimoiy vaziyatdan zarar ko'rganlarni samarali ijtimoiy himoyalashning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

Moddiy yordam – birinchi navbatda, davlat byudjetidan maosh oluvchi aholining daromadi, nafaqaxo'rlar, stipendiya oluvchi talabalar, yordam puli oluvchilarning kompensasiyalarini to'liq yoki qisman indeksasiya qilish, narxlarning oshishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash.

Mahsulot hisobidagi yordam – nogironlar, urush qatnashchilari, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarni sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi tibbiy yordam va yasama tayanch vositalari bilan ta'minlash.

Samarali bandlik siyosati – kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, ish va dam olish rejimini o'zgartirish.

Ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish – uy-joy, bolalar muassasalarida bo'sh o'rinlarni tashkil qilish, qariyalarni parvarishlashni tashkil qilish. Qayd etib o'tish kerakki, qo'llanilayotgan ijtimoiy himoya shakli aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib talab va ehtiyojlar bozorini boshqarib borish, turmush darajasining tushib ketishini oldini olish, samarali

bandlik siyosatini yuritish, ishsizlikdan himoyalash, kelgusida turmush darajasini yanada oshirish uchun munosib zamin tayyorlash, aholida boqimandalik kayfiyatini oldini olgan holda ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyatini ta'minlash va qulay shart-sharoitlarni yaratuvchi omillarni qo'llash tamoyillariga bo'ysundiriladi.

Qayd etish joizki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy munosabat sifatida to'liq rivojlangan XX asrda ijtimoiy himoyaning davlat ichki tuzilmalarini qamrab oluvchi qudratli tizimi yaratildi va tegishli davlatning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib turli-tuman modellari shakllandi.

Ye.Tishinning fikriga ko'ra, ijtimoiy himoyaning alohida modellarining shakllanishi va rivojlanishiga mamlakatdagi iqtisodiy va demokratik vaziyatdan tashqari, madaniy an'analar va diniy qadriyatlar ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Darhaqiqat, ma'lum ijtimoiy tahlika ko'rinishidan kelib chiqib ijtimoiy himoya shakli yoki ularning muvofiqlashtirilgan majmui yaratiladi. Bunda ma'lum millatning milliyetnik va geosiyosiy xususiyatlari e'tiborga olinishi zarur.

Ushbu sohada tadqiqot olib borgan L.Govoruxina va Ye.Doroxovalar ijtimoiy himoyaning 4 asosiy, ya'ni, kontinental, skandinaviya, britaniya, o'rta yer dengizi modellarining xususiyatlarini o'rganganlar.² Unga ko'ra, kontinental modelga mansub Germaniya, Fransiya, Avstriya va Belgiyada asosiy e'tibor muhtojlarga ko'mak pullarini ajratishga qaratiladi.

Skandinaviya modeliga xos bo'lgan davlatlardan Shvesiya, Finlandiya, Daniya va Norvegiyadagi ijtimoiy xizmatlarning keng tarmog'i mavjud bo'lib, kontinental modeldan farqli ravishda davlat ijtimoiy xizmatni ishlab chiquvchi va taklif etuvchidir. Ta'lim, sog'liqni saqlash, bolalar, qariyalar to'g'risida g'amxo'rlik va hokazolar ko'pchilik hollarda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Britaniya modeli xususiy va markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari ko'rinishidagi sohalari o'rtasida ijtimoiy ta'minot xarajatlarining teng taqsimlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu modelda kam ta'minlangan oilalarga yalpi ko'mak pullari ajratilishining yaxlit tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'rta yer dengizi modeli Ispaniya, Portugaliya, Gresiya, Italiya va Irlandiya kabi davlatlarda joriy etilgan. Modelning asosiy mohiyati davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urtani amalga oshirilishidadir. Bu davlatlarda ijtimoiy madad muhtojlarning barchasini qamrab olmaydi. Fikrimizcha, bugungi kunda O'zbekistonda joriy etilgan ijtimoiy himoya tizimi o'z tuzilishi va amaliyotda qo'llanilishi xususiyatlariga ko'ra, skandinaviya va britaniya modellari bilan ba'zi o'xshashlik tomonlariga ega. Jumladan, mamlakatimizda yuritilayotgan ijtimoiy siyosatda ijtimoiy himoya vakolatlari davlat va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida taqsimlanadi. Unda kam ta'minlangan oilalar madadni oluvchi asosiy qatlam hisoblanadi. Ammo, bu O'zbekiston amalda bo'lgan ijtimoiy himoya qayd etilgan modellarga aynan o'xshashdir, degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Sababi, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashning tartibga solinishida davlat tuzilmalari qatorida faoliyat yuritayotgan

fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi – mahallalar o'z xususiyatiga ko'ra noyob hodisa bo'lib, ijtimoiy himoya vakolatlarining ma'lum qismini ularga rasman yuklatilishi davlat ijtimoiy siyosatini to'ldiruvchi samarali mexanizmning shakllanishiga turtki bo'ldi. Darhaqiqat, tegishli hududda yashovchi aholining turmush tarzi, ulardagi muhtojlik darajasi to'g'risida aniq va ravshan ma'lumotga ega bo'lgan mahalliy boshqaruv organlari bir tomondan davlat mablag'laridan o'rinli foydalansa, ikkinchi tomondan mahalliy mablag'larni ishga solish orqali aynan muhtoj qatlamlarni yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoyalash imkoniyatiga egadirlar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya kamchiqim va qulay tizim sifatida mahalliy aholi hamda rasmiy davlat organlari o'rtasidagi muhim vositachi, bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi hamda mamlakatda demokratik jarayonlarni jadallashtirib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Band mohiyatidan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, ijtimoiy siyosat o'zaro aloqalar va munosabatlarning shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpsi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya har bir davlatning ichki ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, aniq yo'naltirilgan huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy kafolatlar tizim orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini qonuniy tarzda himoyalashni kafolatlovchi shart-sharoitlarni yaratadi.

Uchinchidan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya darajasi har bir davlatning ichki iqtisodiy-ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi va bu jarayonda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiq takomillashib boradi.

To'rtinchidan, ijtimoiy himoya tizimlari umumjahon andozalari, tamoyillariga asoslanish bilan birga tegishli davlat, millatning milliy-etnik, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy voqyeligidan kelib chiqib o'ziga xoslik tamoyillarini ham istisno etmaydi.

Beshinchidan, bugungi kunda aholini ijtimoiy himoyada nafaqat davlatning, balki nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning mas'uliyati oshib bormoqda.

Oltinchidan, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosatini to'ldiruvchi vosita sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farxod o'g'li S. D., Mo'minovich D. A., Shuxrat o'g'li X. J. AHOLINI

2. QISHLOQ XO 'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLANGAN DARAJASINI EKONOMETRIK BAHOLASHNING DASTURIY
3. TA'MINOTI TAHLILI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO
4. INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T.
 - a. – №. 12. – С. 465-469.
5. Odiljon Aliqambarovich Xoshimov, Gulbahor Abdufattoxovna Ergasheva O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish davrida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish // Science and Education. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-iqtisodiyotni-rivojlantirishva-liberallashtirish-davrida-pensiya-ta-minoti-tizimini-takomillashtirish>
6. (дата обращения: 08.11.2022).
7. Abdurakhmanova M., Mullajonov M., Egamberdiyev F. SOCIAL SECURITY AND SOCIAL PROTECTION OF OLDER PERSONS AT THE
8. INTERNATIONAL LEVEL //Oriental Journal of Social Sciences. – 2022. –
9. T. 2. – №. 03. – С. 156-163.
10. Fayziyev I. S. YASHASH, ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK
11. HUQUQINI TA'MINLASHNING MILLIY VA XALQARO-HUQUQIY
12. ASOSLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 259-266.
13. Farxod o'g'li S. D., Mo'minovich D. A., Shuxrat o'g'li X. J. AHOLINI
14. QISHLOQ XO 'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLANGAN DARAJASINI EKONOMETRIK BAHOLASHNING DASTURIY
15. TA'MINOTI TAHLILI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO
16. INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T.
 - a. – №. 12. – С. 465-469.
17. <https://cyberleninka.ru/article/n/aholi-ijtimoiy-himoyasida-pensiya-fondlariolini-oshirish-yo-llari>
18. <https://lex.uz/uz/docs/-2064013>

АЁЛЛАРДА БЕПУШТЛИК САБАБЛАРИ

Я.А. Сатимова

Республика ўрта тиббиёт ва фармацевт ходимлар малакасини ошириш ва уларни ихтисослаштириш Маркази Андижон филиали ўқитувчиси, акушер-гинеколог.

Аннотация : *Мазкур мақола даволаш профилактика муассасалари ва оилавий поликлиникаларда фаолият олиб бораётган акушер-ҳамшираларни ҳар томонлама етук, ихтисослик фанлари бўйича етарли билим, малака, кўникмаларга эга бўлишларига эришиш, улар мустақил фаолияти яъни, кўрсатмалар бериш, ўз-ўзини бошқариш ҳамда маслаҳатлар беришга доир тиббий ёрдамни янада такомиллаштиришга хизмат қилади.*

Калит сўзлар : *Репродуктив саломатликни, бепуштлик, гормонал бузилишлар, экстракорпорал уруғлантириш*

КИРИШ

Репродуктив саломатликни асосий тамойилларидан бири бу туғиш ёшидаги аёллар орасида бепуштликни олдини олишдир.

Бепуштлик деб қачон айтилади? ЖССТ (1986й.) таърифига кўра, туғиш ёшида бўлган эр-хотин бир йил давомида уруғланишга қарши воситаларсиз мунтазам жинсий ҳаёт кечирганига қарамай ҳомиладорлик кузатилмаса, никоҳ бепушт ҳисобланади. 2015 йилги статистик маълумотларга кўра Ўзбекистон аҳолисининг 100000 та сонига 118,4 та бепуштлик тўғри келади, бу 100 та одамдан 1,18 тасида бепушт дегани. Бола туғиш ёши 15 ёшдан 49 ёшгача ҳисобланади.

Японияда эса, бутун аҳоли сонига нисбатан 10-15% аёлларда бепуштлик кузатилади.

Бепушт никоҳ бирламчи ва иккиламчи бўлади. Агар ҳомиладорлик умуман кузатилмаса-бепуштлик бирламчи, агар ҳомиладорлик кузатилиб, сўнгра бепуштлик юзага келса бепуштлик иккиламчи ҳисобланади (асосий сабаблари: чала туғиш, муддатига етказ олмаслик, ўлик ҳомила туғилиши ва бошқалар). Баъзи аёллар бир йил ўтмаса ҳам ўзларини бепушт ҳисоблаб бепуштликни сабабини аниқламасдан, нотўғри даволанадилар, бу эса бир қанча асоратларга сабаб бўлади.

Бепуштликка олиб келувчи қандай сабаблари бор?

Бепуштлик сабабини аниқлаш анча қийин кечади, шунинг учун жуда кўп текширувлардан ўтиб, сабаби аниқлангач даволаш бошланади.

Асосий сабаб бўлиб, аёл ва эркакларнинг репродуктив аъзоларидаги морфологик бузилишлар ҳамда функционал бузилишлар, яллиғланиш касаликлари (эндометрит) ва руҳий омиллар (руҳий стресс) сабаб бўлади. Бачадондаги органик

Ўзгаришлар туфайли юзага келадиган бепуштлиқнинг сабабларига-ички эндометриознинг бошланғич формалари, бачадон субмукоз миомаси, эндометрий гиперплазияси ва полиплари, турли этиологияли яллиғланиш жараёнлари киради. Бу ўзгаришлар хайз даврини бузилиши(масалан- мено-, метроррагия, олигоменорея ва аменорея) шаклида клиник намоён бўлади. Этиологик омиллари бўйича бепуштлиқни қўйидаги турларга ажратиш мумкин.

1. Бепуштлиқнинг эндокрин тури.
2. Нишон аъзолар жароҳатланиши билан боғлиқ бепуштлиқ.
3. Бепуштлиқнинг иммунологик тури.
4. Эркаклар бепуштлиги

Бачадон бўйни ва қиннинг орттирилган нуқсонлари кўпинча жинсий аъзоларнинг яллиғланиш касалликлари натижасида, жарроҳлик муолажалари оқибатида келиб чиқади.

Бачадон бўйни омили сперматозоидларнинг ташилишида катта аҳамиятга эга. Бачадон бўйни шиллиғининг бузилиш сабаблари:

1. Яллиғланиш ўзгаришлари.
2. Гормонал бузилишлар.
3. Сперматозоидларга нисбатан антитаналар бўлиши.
4. Бачадон бўйни анатомик ўзгаришлари.

Баъзида фақат аёлларгина эмас, эркакларда ҳам бепуштлиқ кузатилади, шунинг учун эркак жинсий аъзолари фаолиятини ҳам текшириш мақсадга мувофиқдир. Кўпинча эркаклар бепуштлиқ сабабчиси ўзлари эканлигини тан олмайдилар ва текширувларга бормайдилар. Бундай ҳолларда эркаклик нафсониятига тегмаган ҳолда, мижозга текширувлардан ўтиш кераклигини тушунтириш керак.

(Неплодородность)- пушти кам аёл ҳомиладор бўлса ҳам, боласи ўлик ёки муддатига етмай туғилади

Ҳомиладорлик юзага келиши мумкинлигини аниқлаш учун қўйидаги текширувлардан ўтиши керак:

1. Базал ҳароратни ўлчаш: овуляцияни ва сариқ тана фаолиятини аниқлаш учун. Бу уйғонган заҳоти ўлчанади ва ҳарорат ўзгаришига кўра овуляция кунлари ва ҳомиладор бўлиш мумкин бўлган кунлари аниқланади.

2. Рухий омиллар таъсири: ҳулқ атвордаги ҳусуиятларга кўра стресс бўлиши (эмоционал неврозга мойиллик), яшаш шароити, оилавий муносабатлар, биография ўрганилади.

3. Бачадон найлари ўтказувчанлигини аниқлаш.

4. Бачадон бўйни шиллиғини текшириш: эстрогенлар ишлаб чиқарилиши ва овуляцияни аниқлаш учун.

5. Қин ҳужайраларини текшириш учун суртма олиш: овуляция фаолиятини аниқлаш учун.

6.Бачадон эндометрийсини цитологик текшириш: сурункали яллиғланишни аниқлаш учун.

7.Гормонларни текшириш.

8.УТТ, фолликул ривожланишидан бошлаб овуляцияга қадар.

9.Эркаклар бепуштлигини аниқлаш.

10. Бачадон бўйни шиллиғи ва спермани мослигини текшириш

11.Мижознинг бепуштлики ҳақидаги ўй ҳаёлларини тинглаш, уни ҳолатига кириш ва ёрдам бериш. Тиббий ходимларга бўлган ишонччи ҳосил қилиш

Бепуштликини даволаш. Бепуштликининг сабаблари жуда хилма - хил бўлгани учун, ҳар доим ҳам тиббий ёрдам орқали уни даволаш осон кечмайди. Беморга ҳар бир текширувдан ўтиш ва охиригача даволаш зарурлигини тушунтириш керак.

Даволаш тугаши билан даров ҳомиладор бўла олмаслиги мумкин, бунини миждозга тушинтириш керак. Беморга даволаш узоқ вақт давом этиши, сабрли бўлиб, ўз ҳоҳиши билан даволаниши кераклигини, чунки руҳий стресслар ва безовталаниш бепуштликка сабаб бўлиши мумкин эканлигини тушунтириш лозим. Мижозни чуқур тушуниб, унинг ҳолатига кириб кўриш лозим ва керакли ёрдам бериш зарур. Жинсий алоқа учун қулай шароит яратиш. Аёлнинг эрининг жинсий фаолиятдан норози бўлиши, ёмон жинсий муносабатлар, атрофдаги ноқулай шароит, руҳий ва жисмоний зўриқиш, конфликт вазиятлар бепуштликка сабаб бўлиши мумкин.

Эр - хотин ўртасида конфиденциал муносабат яратиш ва психологик хотиржамлик учун қулай шароитни яратиш керак.Ҳозирда бепуштликини даволашда сабабларига кўра қуйидагилар қўлланилади:

1.Тухумдон етишмовчилигини - ановуляцияни (гормонлар билан, овуляцияни стимулловчи воситалар) даволаш.

2.Бачадон найлари ўтказувчанлигини даволаш.

3.Эркаклар бепуштлигини даволаш.

4.Сунъий уруғлантириш: донор спермасини бачадон бўшлиғига сунъий равишда юбориш

5. Экстракорпорал уруғлантириш.

Экстракорпорал уруғлантириш ва эмбрион трансплантацияси нисбатан янги, анча мураккаб ва қиммат даволаш усуллари билан бири бўлиб, бу одам тухум ҳужайрасини in vitro шароитда уруғлантириш, уни урчитиш ва эмбрионни бачадонга жойлаштиришдан иборатдир.

Бепуштликини олдини олиш. Кўриб турганингиздек бепуштликка текшириш ва уни даволаш жуда мураккаб.Шу сабабли қиз болаларни ҳам ўғил болаларни ҳам ёшлигидан жинсий ривожланишига ота-оналар эътиборли бўлишлари лозим. Ўсмирлик даврида турли сурункали инфекцияларни ўз вақтида даволаш, жинсий аъзолардаги туғма нуқсонларни мутахассисга ўз вақтида кўрсатиш ва даволаш зарур ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1."Аҳоли ўртасида репродуктив саломатлик борасида билим даражасини ошириш."Ўқув қўлланма.Ташмухаммедова Д.Г.Асадов Д.А.ва бошқалар. Тошкент 2019й

4." Даволаш профилактика муассасаларида акушерлик ва гинекологик ёрдам кўрсатиш" В.Н.Турақулов.Ф.Б. Гафаров.Навоий.Ўқув қўлланма. 24-39 бет

5.Ф.М. Аюпова,Г.А.Ихтиярова,Г.И.Матризаева. "Акушерлик ва гинекология"Бухоро-2021й.Электрон дарслик. 21-28бетлар

6.Г.А. Ихтиёрова,Х.Н.Негматшаева,Х.Т.Шодиева.Акушерлик ва гинекологияда хамширалик иши"Тошкент-2019 й.Электрон дарслик.7-бет.324-бетлар

Электрон таълим ресурслари -

[www. minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)–Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш тизимида оид меъёрий хужжатлар; -www.ziyonet.uz

Маълумотлар портали

САЛЬМОНЕЛЛЁЗ

Н.А.Қўҷқарова

Республика ўрта тиббиёт ва фармацевт ходимлар малакасини ошириш ва уларни ихтисослаштириш Маркази Андижон филиали ўқитувчиси

Аннотация : Ушбу мақола юқумли касалликлар шифохоналари ва оилавий поликлиникаларда фаолият олиб бораётган ҳамшираларни ҳар томонлама етук мутахасис бўлишида кўмаклашади ва аҳоли ўртасида юқумли касалликларни тарқалишини олдини олишда маслаҳатлар бериш соҳага доир тиббий ёрдамни янада такомиллаштиришга хизмат қилади.

Калит сўзлар : Токсикоинфекциялар, бактерия, ичак инфекцияси, сувсизланиш, микроб, спора

КИРИШ

Овқат токсикоинфекциялари-бактерия ва уларнинг заҳарлари билан ифлосланган овқат маҳсулотлари истеъмоли натижасида келиб чиқадиган ўткир ичак инфекцияси бўлиб, клиник қисқа муддатли жунжикиш, ҳарорат кўтарилиши, гастроэнтероколит натижаси токсикоз ва сувсизланиш белгилари билан тавсифланадиган касалликдир.

Овқатдан заҳарланишга сабаб бўладиган тилла ранг ва оқ стафилококк думалоқ, катталиги 0,8–1 мкм тўда –тўда бўлиб кўринади. Улар ҳаракатсиз, спора ва капсула ҳосил қилмайди. Граммусбат ҳамма анилин бўёқлари билан бўялади. Юқори ҳароратга чидамли термостабил, энтеротоксин ишлаб чиқаради.Энтеротоксин кимёвий ва физик таъсирларга жуда чидамли бўлиб қайнатилганда 1,5–2 соат, 120 даражагача қиздирилган автоклавда эса 20 минутдан кейингина фаолсиз ҳолга келади. *Cl. perfringens* 7-8 x 1-2 мкм катталиқдаги таёқчасимон микроб бўлиб ҳаракатсиз, ташқи муҳитда спора ҳосил қилади. Юқорида қайд килинган микроблар токсикоинфекцияга сабаб бўлган деб хулоса чиқаришдан олдин клиник, эпидемиологик, бактериологик, серологик текширувлар натижасига сўянган ҳолда сальмонеллёз, ичбуруғ, вабо тўғрисида ўйлаб кўриш лозим.

Сальмонеллёз – нажас-оғиз механизми билан юқувчи, клиник умумий заҳарланиш белгилари, сувсизланиш ва тузсизланиш ҳамда меъда-ичак йўллари фаолиятининг бузилиши белгилари билан тавсифланадиган ўткир юқумли касалликдир.

Этиологияси. Сальмонеллалар грамм манфий, спора ва капсулалар ҳосил қилмайди, хивчинлар ёрдамида ҳаракатланадиган таёқчалардир. Унинг 8-12та хивчинлари бўлиб («кўп эшаккли кемача») ҳаракатчан. Сальмонеллаларнинг ферментатив хусусиятлари асосида 4 та оилачага бўлинади, уларда 3 хил асосий антиген комплекслари: О-соматик (термостабиль) - 2 соат давомида қайнатилганда

парчаланмайди, Н-хивчинли антиген қайнатилганда парчаланеди ва қобиқли К-антиген бактериянинг

ҲУЖАЙРА ИЧИ КЎПАЙИШНИ ТАЪМИНЛАЙДИ.

Сальмонеллалар бир қатор патоген хусусиятларга эга, шулардан асосийси унинг адгезивлиги- ичак эпителийларига ёпишиши; инвазивлиги эпителийлар ичига кириб, у ерда кўпайиши, энтеротоксинларнинг эпителийларга токсик таъсир қилишидир.

Сальмонеллалар одатда озуқа моддаларда, айниқса гўшт шўрваси ва қони бор моддаларда, озроқ кислороди бўлган ерда, қуёш нури таъсирида ўсаверади, улар 37С хароратда яхши ўсади ва кўпаяди. Бироқ 50С иссиқликда ва музлатгич ҳароратида ҳам яшай олади, ташқи муҳитга чидамли. Қудуқ, ҳовуз, кўл, ариқ сувида, ичимлик сувида 11 кундан 120 кунгача яшайди, гўшт, колбаса ва бошқа гўшт маҳсулотларида 60-130 кун, музлаган гўштда 13 ойгача яшаб, гўшт музи эриганда кўпая бошлайди. Музлатгичдаги сутда 20 кунгача, сариеғда 52-128 кун, тухум ва пишлоқда 13 ойгача, ҳайвон ва одам нажасида 80 кундан 4 йилгача сақланади. Ҳозирги пайтда одамларда касаллик қўзғатувчи сальмонеллаларнинг 2000 дан зиёд тури аниқланган. Кўриниб турибдики, сальмонеллалар оиласи жуда катта ва унинг вакиллари хавфли, чидамли микроблардир. *Sal. typhi* ва *paratyphi*

А дан ташқари ҳамма маълум серологик турлари одамда ҳам ҳайвонларда ҳам касаллик чақиради.

Эпидемиологияси. Сальмонеллалар спорадик ва эпидемик ҳолатларда учрайди. Сальмонеллалар бошқа ўткир ичак инфекциялари қўзғатувчиларидан фарқли равишда одамдагина эмас, балки ҳайвонлар (қорамол, чўчқа, паррандалар - ўрдак, ғоз, камроқ товуқлар)да ҳам касаллик қўзғатади.

Белгиларсиз, яширин кечувчи касал ҳайвонлар юқиш манбаи сифатида кўпроқ хавф туғдиради. Сальмонеллалар тайёр овқатга тушиб ва унда кўпайиб, унинг таъмини, рангини ва ҳидини ўзгартирмайди. Шунинг учун ташқи кўриниши сифатли, бироқ санитария нормаларига хилоф тайёрланган овқат касаллик тарқатувчи омилга айланиб қолиши мумкин.

Инфекциянинг иккинчи манбаи-одам ҳисобланади. Сальмонеллалар билан касалланганлар, бактерия ажратувчилар касаллик юқтирадиган манбаи бўлади. Сальмонеллалар ривожланишининг эпидемиологик қонуниятларини ўрганган олимлар касаллик қўзғатувчиси ўтишининг уч асосий йўлини аниқлашган. Сальмонеллалар асосан озиқ-овқат орқали юқади. Мол ва парранда гўшти касалликнинг асосий манбаи саналади. Мол, чўчқа, қўй, от, ўрдак гўшти, айниган тухумлардан тайёрланган овқатни истеъмол қилиш натижасида 80% ҳолларда шу касаллик юқади. Сальмонеллалар билан оғриган ҳайвонлар сути ҳам жуда хавфли. Сальмонеллалар тарқалишида пашшаларнинг ҳам аҳамияти катта, сальмонеллалар касаллигининг айниқса пашша кўпайган даврга тўғри келиши ҳам шунини тасдиқлайди. Сальмонеллалар тарқалишининг асосий йўллари билан бири сув йўлидир. Сальмонеллалар сувда узоқ вақтгача ўз ҳаёт

фаолиятини сақлаб, қолади сув оқими билан олис масофаларгача боради. Касаллик тарқалишида шахсий гигиена қоидаларига амал қилмайдиган беморлар, бактерия ташувчилар, айниқса озиқ-овқат маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва тайёрлашга алоқадор бўлган одамлар алоҳида ўрин эгаллайди. Сальмонеллэз касаллиги билан жинси ва ёшидан қатъий назар, ҳар қандай одам касалланиши мумкин. Ҳозирги пайтда сальмонеллэзга хос хусусият унинг кўпинча «спорадик» (аҳён-аҳёнда) ҳолатда учрашидир, бу ҳолат асосан сальмонеллалар юққан озиқ-овқатлар билан савдо қилинишидан келиб чиқади. Ҳозирги замон табобатининг асосий муаммоларидан бири «шифохона ичи» сальмонеллэзининг пайдо бўлишидир. «Шифохоналар ичи» келиб чиқувчи сальмонеллэзнинг одатдагилардан (озиқ-овқат билан юқувчи) фарқли равишда ўзига хос эпидемиологик қонунлари бор: болалар шифохонаси ва туғруқхоналарда кўпроқ тарқалиши, асосан бир ёшгача бўлган болаларнинг касалланиши, болаларда касалликнинг оғир ўтиши ва ўлимнинг кўп бўлиши, кўпроқ фаслнинг совуқ ойларида учрашидир. Бу ҳолларда касаллик манбаи асосан одам, кўпроқ болалар, камроқ шифохона ходимлари, оналар хизмат қилади. Диарея синдроми билан кечувчи касалликлар орасида сальмонеллэз касаллигининг салмоғи катта.

ПАТОГЕНЕЗИ

Касаллик қўзғатувчи ва уларнинг токсинлари оғиз орқали (энтерал йўл) организмга тушади. Меъда ва ичакларда ўткир яллиғланиш ҳолатига олиб келади. Сальмонеллэз патогенезининг хусусиятларидан бири қўзғатувчининг меъда-ичак тизимидан ўтиб қон ва лимфа билан организмга тарқалишидир. У ўз йўлида бир қатор тўсиқлар (чунончи меъда шарбати, ингичка ичак девори, шу органларга яқин жойлашган (регионар) лимфатик тугунлар, жигар, қон РЭС тўқималари специфик антителолалар ва ҳ.к.)дан ўтади. Макро ва микроорганизмларнинг муносабатига мувофиқ юқумли жараён юқорида кўрсатилган тўсиқлардан биронтасида тўхташи мумкин. Касаллик белгилари сальмонеллаларнинг ингичка ичак деворидан ўтгач пайдо бўла бошлайди. Организмга касал қўзғатувчи бевосита (септик компонент) таъсиридан ташқари, экзо ва эндотоксинлари токсик компонентлари билан таъсир кўрсатади. Организмнинг жавоби алоҳида аъзо ва тизимлар фаолиятининг

бузилиши (патофизиологик компонент) ва модда алмашувларнинг бузилиши (метаболик компонент) сифатида юзагачиқади. Оғиз бўшлиғида сальмонеллэз сўлак ферментларининг литик (эритиш) таъсирига дуч келади, аммо бу ерда қисқа муддатли мулоқотда бўлганлиги учун микроблар ҳалок бўлмайдилар. Меъдада юқори кислотали шароитда сальмонеллалар ҳалок бўлиб эндотоксинлар ажралади. Агар сальмонеллалар кам миқдорда кирган бўлса, бу ерда ҳаммаси ўлади, юқумли жараён шу ер билан чегараланади. Бу ҳолатда ажралган экзо ва эндотоксинлар қонга сўрилиб захарланиш белгиларини ривожлантиради, лекин улар жуда кам ва қисқа муддатли бўлиб, тез йўқолади. Кўпинча меъда ширасининг кислотаси камайиши натижасида сальмонеллалар ингичка ичакка ўтади. Бу ерда улар ўзига мос муҳитга тушадилар,

ичак эпителиоцитларнинг ёпишиб олиб, кўпая бошлайдилар. Шундан сўнг энтероцитларнинг микроворсинкаларида ўзгариш пайдо бўлади, сальмонеллалар эпителийни ўзгартирмай ичак шиллиқ қаватига ундан сўнг лимфа ва қонга ўтади. Қон орқали организмга тарқалади, биринчи навбатда дарвоза венаси билан жигар, сўнгра ўпка, катта қон айланиш доираси, бошқа кўп аъзолар ва тўқималарга киради. Вакуолаларнинг бир қисми қон томирларига парчаланаяди, бўшаган сальмонеллалар қонда айланиб юради.

Сальмонеллаларнинг қонда айланиб юриши бир неча соатдан бир неча кунгача давом этади, аъзоларга кириб, янги-янги инфекция ўчоғи ҳосил қилади. Вакуолалардаги ва соф ҳолдаги сальмонеллалар ичак ва аъзолар лимфа тўқималарнинг макрофагларига ўрнашади, бу ерда уларнинг кўпайиши натижасида тўқималар ҳалок бўлади. Бу ўзгаришлар гранулемалар ва иккиламчи инфекция ўчоқлари ҳосил бўлишининг асосида ётади.

Клиникаси.

Касалликнинг яширин даври 3-5 соатдан 20-24 соатгача, камдан-кам 1-2 кун, кўпинча 6-8 соат давом этади. Сальмонеллез касаллигининг клиник манзараси жуда хилма-хил: энг енгил туридан (бактерия ажратувчилар), то жуда оғир кечувчи бутун организмга ёки аъзога тарқалувчи шаклигача мавжуд. Касалликнинг шундай кечишига албатта, меъда ичак йўлларининг специфик ва носпецифик иммун кучи, ҳамда биологик бошқариш системасининг молекуляр, ҳужайра ва аъзолар кураши кучига боғлиқ. Юқумли жараённинг кечишида, албатта қўзғатувчи ҳусусиятлари, юкиш йўли, микроорганизмнинг генотипик аҳволи алоҳида ўринда туради. Сальмонеллез касаллигининг ёш болалар ва қарияларда кечишининг фарқлари бунга яққол мисол бўла олади.

Сальмонеллез касаллигининг куйидагича таснифи амалий қўллаш учун тавсия қилинган:

1. Гастроинтестинал шакли:

- а) ўткир гастрит;
- б) ўткир гастроэнтерит;
- в) ўткир гастроэнтероколит.

2. Тарқалган шакли:

- а) тифсимон варианты (қорин тифсимон);
- б) септико-пиемик варианты (септик).

3. Бактерия ташувчанлик:

- а) ўткир ташувчилар;
- б) сурункали ташувчилар;
- в) транзитор ташувчилар.

Ҳозирги вақтда гастроинтестинал шакли энг кўп учрайди ва юқорида кўрсатилган вариантларда бўлиши мумкин. Касаллик аксарият ўткир бошланади. Касаллик бошиданоқ меъда-ичак йўллари фаолиятининг бузилишидан ташқари, организмнинг

захарланиш белгилари ҳам юзага чиқади. Кўпинча биринчи навбатда кам қувватлилик, бош оғриши, тана ҳароратининг кўтарилиши, совуқ қотиш каби белгилар кўришиб, меъда ичакнинг зарарланиш белгилари кейинроқ қўшилиши мумкин. Сальмонеллез касаллиги учун хос бўлган белгилар биринчи кун охири ва 2-3 кунларда касалликнинг авж олган даврида жуда аниқ кўринади. Бу даврда касалликнинг ҳамма шаклларида кўнгил айнаши, қусиш, иштаҳанинг пасайиши, ич кетиш каби белгилар кузатилади. Қусиш биринчи кунлари жуда кўп қайтарилиши мумкин. Ич кетиши кўп касалларда бир кеча кундузда 10 мартадан ортиқ, нажас кўп миқдорда, сувсимон, кўпириб, патологик қўшимчаларсиз, баъзи касалларда (1/3 қисмида) яшилроқ рангда, бадбўй бўлиши мумкин. Касаллик авж олган даврда кўп беморларда қоринда оғриқ (узлуксиз ёки тутиб-тутиб), бутун қоринда тарқалган ҳолда ёки киндик атрофи ва меъда усти соҳасида бўлади. Қорин пайпаслаб кўрилганда оғриқ ва ичак қулдирашлари ҳам юқорида қайд этилган жойларда сезилади. Гастроэнтерит вариантларида ўзгаришлар меъда-ичак йўллариининг ҳамма соҳаларини, хусусан ингичка ичак, меъдаости беши ва жигарда ҳам бўлиши мумкин. Меъданинг катарал ҳолатда зарарланиши доимо бўлади, баъзи ҳолатларда фақат шу шакл кузатилади, бу ҳолатда гастрит варианты ҳақида фикр юритилади. Касаллик даврида йўғон ичакнинг ҳам зарарланиши ҳақида кўп тадқиқотчилар таъкидлаб ўтганлар, бу ҳолларда колит белгилари (сигмасимон ичакнинг қисқарган ҳолда бўлиши, гемоколит) пайдо бўлади. Булар гастроэнтероколит варианты бўлиб, бу шакл 5-8% ҳолларда учрайди. Тана ҳароратининг ошиши асосан касаллик авж олган даврда бўлади, кўпинча узлуксиз доимий, лекин субфебрил, ремиттирловчи ҳолатда кўриниши мумкин. Ҳарорат 5-7 кун давом этади, баъзан 1-2 кундан ошмайди.

Иситма касаллик енгил кечганда 1-3 кун, ўртача кечганда 4-7 кун, оғир кечганда 7 ва ундан кўп кун давом этиши мумкин. Сальмонеллез касаллиги учун юрак-қон томир тизимининг зарарланиши ҳам хос хусусиятдир. Қон томирлари фаолиятининг бузилиши асосий ўринни эгаллайди, булар ўз

йўлида юрак фаолиятининг бузилишига олиб келади. Бу ҳолатларнинг асосида сув ва электролитларнинг йўқотилиши ва қоннинг реологик усусиятларининг ўзгариши ётади. Буйракда қон айланишининг бузилиши сув электролит балансидаги ўзгаришлар билан бир қаторда буйрак фаолиятининг ўткир бузилишига сабаб бўлади. Сальмонеллезнинг оғир шаклларида инфекция токсик ва гиповолемик карахтлик ривожланишига олиб келади. Инфекцион токсик ва гиповолемик карахтлик белгилари бир-бирига ўхшайди, лекин инфекция токсик карахтлик организм умумий захарланишининг рўй-рост белгилари, юрак қон томирлар тизими фаолиятининг бузилиши билан тавсифланади. Гиповолемик карахтликнинг асосий патогенетик механизми сувнинг электролит баланси ва унинг гормонал бошқарувининг анчагина бузилиши натижасида сувсизланиш ва тузсизланишнинг чуқур белгилари юзага келади. Сальмонеллезнинг оғир

кечишида касалликнинг дастлабки соатлариданоқ артериал босим анча тушиб баъзан бемор хаётигатаҳдид соладиган коллапс ҳолатига олиб келиши мумкин. Карахтлик сальмонеллэзнинг бошқа клиник шаклларига қараганда гастроэнтеритда кўпроқ кузатилади. Инфекцион карахтликнинг клиник манзараси аввало беморнинг безовталаниши, беҳудага хавотирланиши, ташқи қиёфасининг ўзгариши билан тавсифланади. Беморнинг юзи бўзарган, лаб шиллиқ пардалари, ёноғи, бурун учи кўкимтир, кўз атрофлари кўқарган, организм анча сувсизланганда кўз соққаси ичига ботган бўлади. Беморларнинг пешонасида тер томчилари кўринади. Касалликнинг дастлабки даврида ҳарорат анча ошсада, карахтлик юз бергандан сўнг беморларнинг тана ҳарорати субнормалгача тушади. Пульси жуда тез (тахикардия), жуда юмшоқ, қийинлик билан қўлга унайди, ипсимон бўлиб қолади, карахтлик авж олган даврда пульс умуман билинмаслиги мумкин. Қон босим кескин пасайиб кетади, максимал босим 30-40 мм.сим. устунига, минимал босим 0 гача тушади. Юрак чегаралари бир мунча торайган (унинг диастолада етарлича тўлмаслиги туфайли), юрак товушлари кескин бўғиқлашган.

Гемограммада аниқланадиган нейтрофил лейкоцитоз фоизининг ошиши, гемоглобин ва эритроцитлар миқдорининг кўпайиши сальмонеллэзнинг оғир шаклига учраган беморда қоннинг анча қуюқлашганлиги билан изоҳланади. Айниқса бу ҳолатлар токсик-инфекцион карахтлик ривожланганда кўпроқ юзага чиқади, бу шароитда айланувчи қон миқдори камайиши буйрақларга ҳам қон келишини камайтиради, микроциркуляция бузилади ва ҳ.к.

Тифсимон варианты гастроинтестинал турининг клиник белгилари билан, ўткир бошланади, ич кетиш белгиларидан сўнг ич терламадаги сингари белгилар билан ўтади. Бироқ ич терламадан фарқли равишда сальмонеллэзнинг тифсимон варианты қисқа (3-6 кун) кечади, ич терлама учун хос бўлган тилдаги ўзгаришлар, нисбий брадикардия, метеоризм, жигар

талоқнинг катталашуви, анэозинофилия, лейкопения билан нисбий лимфоцитоз бўлмайди. Касаллик ривожланган даврда кам ҳаракатлик, беҳоллик кучли бош оғриғи, уйқунинг бузилиши, мушаклар ва бўғимларда оғрик сезилади. Кўпчилик касалларда жигар ва қора талоқнинг катталашуви, қорин қапчиши мумкин. Тахминан 25% касалларда кўкрак ва қорин соҳаларида оз миқдорда розеолэз тошмалари касалликнинг 4-10 кунларида пайдо бўлади. Сальмонеллэзнинг тифсимон тури баъзан гастроэнтерит белгиларсиз ҳам бошланиши мумкин. Бу ҳолларда асосий белгилар сифатида ҳароратнинг кўтарилиши, бош оғриғи кам қувватлик, совуқ қотиш каби

белгилар борлигига эътибор бериш керак. Септикопиемик шакли сепсис касаллигининг сальмонеллалар қонга ўтиши, организм қаршилиқ қобилятининг пасайиши оқибатида ривожланган ҳолатидир. Бу шакл учун давр билан кечиш хос эмас, ҳароратнинг узоқ давом этиши қалтирашнинг

кўп қайтарилиши ва кўп терлаш, жигар ва қораталоқнинг катталашиши, баъзан сарғайиб кетиши, йирингли ўчоқларнинг аъзо ва тўқималарда пайдо бўлиши хосдир. Одатда касаллик гастроэнтерит белгилари билан бошланади,

шундан сўнг гектик ҳусусиятли ҳарорат билан септикопиемия белгилари юзага чиқади. Касалликнинг биринчи кунлариданоқ токсинларнинг марказий асаб тизимига таъсири натижасида таъсирланувчанлик, уйқунинг бузилиши, уйқусираш, терилар сарғайиши, кўпинча кичик ва катта қонталаш тошмалар бўлиши мумкин. Касаллик ўтгач бактерия ажратувчанлик ривожланади. Бу

ҳолатларда транзитор, ўткир ва сурункали бактерия ташувчанликни фарқлаш тавсия қилинади. Касаллик соғайган кундан бошлаб 15 кундан то 3 ойгача давом этувчи бактерия ажратиш ўткир бактерия ташувчанлик деб аталади. Сурункали бактерия ташувчи бундан кўра кўпроқ давом этади. Таранзитор (соғлом) бактерия ташувчилар ҳақида гапирилганда, бир ёки икки марта

сальмонеллалар ажралиши ва яқин уч ой ичида касал бўлганликларини инкор этувчилар назарда тутилади.

Ташхисоти.

Касаллик эпидемиологик анамнезга бир маҳсулотни бир неча киши истеъмол қилиши, тайёрлаш технологиясига риоя қилмай, узоқ сақланган озиқ овқатларни истеъмол қилиш клиник манзараси, лабораториявий маълумотлари ва қиёсий ташхисот ўтказишга асосан аниқланади.

Нажасни бактериологик таҳлил қилиш энг муҳим ҳисобланади. Беморнинг тоза нажасини экма қилиш бемор организмидан сальмонеллаларни ажратиш (30-60%) имконини беради. Экма учун судно ёки тувақдан фақат тоза нажасни олиш лозим. Бу идишларда сальмонеллаларга ҳалокатли таъсир қила оладиган дезинфекцияловчи моддалардан ҳатто жуда оз миқдори ҳам бўлмаслиги керак. Нажасни тампон билан тўғри ичакдан ҳам олиш ва уни Петри косчасидаги озуқа муҳитига экиш мумкин. Беморнинг қусиғи ҳам шундай текширилади. Бемордан материал олишнинг ҳамма зарур шартлари бажарилиб текширилган ва бактериологик текшириш ўтказилган тақдирда ҳам ҳаммиша экма қилинган нажаслардан мусбат натижа олинавермайди.

Шунга кўра бактериологик текширувларга қўшимча қилиб агглютинация реакцияси (РА), бевосита гемагглютинация реакцияси (БГАР), О- антиген билан агрегатгемагглютинация (ОАГА) каби серологик усуллар қўлланилади.

Давоси:

Сальмонеллэзга чалинган беморлар касалликнинг кечим оғирлиги, беморлар ёши, қўшимча касалликлар ва яшаш жойининг санитария-гигиена ҳолатига боғлиқ ҳолда касалхонада ёки ОП шароитида даволанади. Сальмонеллэзни даволаш қўйидаги тамойилар асосида амалга оширилади:

-Касалликни қўзғатувчи патоген микрофлоранинг ҳаёт фаолиятининг тўхтатиш, дисбактериозга қарши курашиш ва овқат ҳазм бўлиш жараёнларининг

нормаллашуви, тўпланган захарли моддаларни нейтраллаш ва чиқариб юбориш бузилган сув-туз алмашинув жараёнини, гемодинамика ва асаб бошқариш механизмларини тиклаш. Организмнинг иммунобиологик реактивлигини ошириш, рационал парҳез таомлар буюриш ва парвариш қилиш. Этиотроп даво сальмонеллёзнинг тарқалган шаклларини, икки ёшдан кичик болаларни даволашда қўлланилади. Бунда ҳар

бир беморга алоҳида ёндошиш лозим, беморнинг ёши, касалликнинг шакли, кечим оғирлиги ва босқичи, олдинги қўлланилган даволаш услуби ҳамда препаратларнинг ижобий ва салбий таъсирлари инобатга олиниши шарт.

Этиотроп даво воситаси сифатида антибиотиклардан (амоксациллин, гентомицин, амикацин, офлоксацин, ципролет, сифлокс), нитрофуран ҳосилалари (фуразолидон, нифкол, нифрокс), сульфаниламидлар (фталазол, фитазин, бисептол), 8-оксихинолин ҳосилалари (энтеросептол, интестопан, мексоформ, интетрикс) қўлланилади. Фуразолидон 0,1 г дан кунига 3 маҳал,

бисептол 480 1 таблеткадан 2 маҳал, интетрикс 2 капсуладан 2 маҳал оғиз орқали буюрилади. Агар улар натижа бермаса, ципрофлоксацин (ципролет) 0,5 г дан 2 маҳал, норфлоксацин 0,4 г дан 2 маҳал, офлоксацин (таривид) 0,2 г дан 2 маҳал овқатдан кейин тавсия этилади. Патогенетик даво сальмонеллёзнинг барча клиник

шаклларини даволашда тавсия этилади. Касалликнинг гастроинтестинал шаклларини даволашда регидратацион терапиянинг самараси юқоридир. Регидратацион даволаш асосан икки йўл орқали амалга оширилади:

1. Оғиз орқали регидратацион даволаш учун глюкосолан, регидрон, ВОЗ эритмаси, уй ва касалхона шароитида тайёрланган қанд-тузли эритмалар қўлланилади. Оғиз орқали регидратация усули қанчалик вақтли қўлланса, самара шунчалик юқори бўлади.

2. Беморларда оғиз орқали регидратацияни амалга ошириш қийин бўлса, беморда қусиш аломатлар кузатилса, бемор суюқликларни ича олмаса, вена ичи орқали регидратация амалга оширилади. Вена ичи орқали регидратацион даволаш тузли эритмалар (Рингер эритмаси, «Дисоль», «Трисоль») ни қуйишни ўз ичига олади. Тузли эритмалар касаллик кечимининг оғирлиги,

сувсизланиш даражасига мос ҳолда қўйилади. Касалликнинг тарқалган шаклларида умумий захарланиш белгилари яққол намоён бўлганлиги учун умумий захарланишга қарши воситалар буюрилади. Умумий захарланишни бартараф қилиш учун 5% ли глюкоза, гемодез, 5% декстроза, реополиглюкин, реомакродекс, полиглюкин, реосорбилакт, плазма қуйиш тавсия этилади.

Касаллик оқибатида ичак микрофлорасининг, ҳамда овқат ҳазм қилишнинг бузилиши юзага келади. Дисбактериозга қарши лактобактерин, бифидумбактерин, бификол, колибактерин, хилак форте; овқат ҳазм қилишни меъёрлаш учун панкреатин, мезим форте, креон, панзинорм тавсия қилинади.

Ичакларни буруштирувчи ва ўраб олувчи воситалар сифатида ўсимликлар йиғмаси сариқ чой, анор пўсти, эман пўстлоғи, 95% чой, мойчечак қайнатмалари, крахмал ичиш ва ҳўқна қилиш учун ишлатилади.

Гипо ва авитаминозга қарши В гуруҳига мансуб бўлган, ҳамда С, Р витаминлар буюрилади. Ичакдаги захарларни сўриб организмдан чиқариш мақсадида энтеросорбентлар смекта ва бектит – М тавсия қилинади..

Симптоматик даво воситалари касалликнинг клиник шаклларида юзага келган белгиларни бартараф қилиш мақсадида амалга оширилади.

Профилактикаси. Сальмонеллез профилактикаси мураккаб ва ҳилма-хил, бу тадбирлардан энг асосийси сўйиладиган ҳайвонларни ветеринария кўриги қоидалари ва гўшт ҳамда гўшт маҳсулотларининг ветеринария-санитария экспертизаси талабларига риоя қилиниши зарур: гўшт комбинати, сут заводи,

парранда фермалари маҳсулотларини қайта ишлашда гигиена ва технологик жараёнлари қоидаларига жуда қаттиқ эътибор бериш,буларни доимий бактериологик текширувдан ўтказиб туриш,болалар шифохоналари, туғруқхоналар ва ҳ.к.ларда санитария эпидемиология тартиботини тўғри сақлаб турмоқ лозим.Гўшт маҳсулотлари, айниқса қиймаланган гўшт, котлет,

қонли ва қайнатма колбасалар, яхналар, илвира (холодец)ларнинг сальмонеллардан зарарланишига йўл қўймайдиган чораларни кўриш алоҳида диққат эътиборни талаб этади. Бу маҳсулотларга сальмонеллалар тушиши, айниқса йилнинг иссиқ даврида,етарлича совуқ жойда сақланмаганда касаллик юқиши жиҳатидан кишилар учун жиддий хавф туғдиради. Овқат тайёрлаш, тарқатиш ва қабул қилиш хоналари санитария-гигиена талабларига

жавоб бериши зарур.

Озиқ-овқат блокига ҳам ўзига хос талаблар қўйилади:

-Ошхонада камида иккита бири кайнатилган гўшт,иккинчиси хом гўшт қиймалагич бўлиши керак.

-Сабзавотлар, балиқ, гўшт ва бошқа маҳсулотларни майдалаш учун алоҳида-алоҳида ёғоч столлар ёки махсус оштахталар бўлиши керак.

-Гўшт ва парранда гўштини ветеринария кўригидан ўтказилганлиги ҳақидаги ҳужжатларсиз ва тамғасиз харидорларга сотиш ман қилинади.

-Озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва шахсий гигиена қоидаларига пухта риоя қилиш талаб этилади, бу айниқса чакана савдо қилиш билан банд

бўлган кишиларга таалуқдир.

-Озиқ-овқатларни ишлаб чиқаришдан истеъмол қилгунга қадар гигиена қоидаларига пухта риоя қилингандагина сальмонеллезнинг озиқ-овқатлар орқали ўтишига барҳам бериш мумкин.

ТАВСИЯ ЭТИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР:

- 1.М.Д. Ахмедова,
- 2.А.Р. Облоқулов,
- 3.С.Н. Бобохўжаев
4. Юқумли касалликларда хамшира иши 2008 йил

ИНТЕРНЕТ МАТЕРИАЛЛАРИ :

1. [http://www. minzdrav.uz./](http://www.minzdrav.uz/)-Ўзбекистон
- 2.республикаси соғлиқни сақлаш
- 3.тизимига оид меёрий хужжатлар;
- 4.-[http: //www.ziyonet.uz./](http://www.ziyonet.uz/)
5. -<http://navoidsenm.uz/foydali>
- 6.maslahatlat/maslahatlat/
- 7.<https://medlife.uz/encyclopedia/b/botulizm/>
- 8.<http://bulungurhayoti.uz/index.php?newsid=7237>

WHAT IS PHILOLOGY AND ITS DIFFERENCE FROM OTHER AREAS

Khodiyeva Shakhnoza Abdullayevna

Senior teacher of Uzbek State World Language University

Abdurakhmonova Mokhinur Bakhromjon Qizi

Student of Uzbek State World Language University

Abstract: *This article provides information about the history of philology, teaching methodology, what philology is and its difference from other fields.*

Key words: *Philology, teaching methodology, science, linguistics, literary studies, textual studies, source studies.*

Philology (from ancient Greek: philologia - "love of words", "love of words") is a general science consisting of the cooperation of humanities - linguistics, literary studies, textual studies, source studies, paleography and others; studies the history and essence of human spiritual culture by linguistic and stylistic analysis of written monuments. The text, which consists of the sum of its internal issues and external relations, is the first basis that determines the existence of philology. By focusing on the text and creating supporting comments (the most ancient form of philological works), philology covers human life, first of all, spiritual life with all its breadth and depth. Philology appeared in the period when the culture of writing was relatively advanced. The ancient highly developed cultures of the Middle East were almost unaware of philology, and in the Middle Ages Western Europe did not pay enough attention to it either; At the same time, philology is the homeland of philosophy. In India and Greece, thinking about words and speech, in the way of its analysis, appeared in harmony with philosophy. Despite the conflicts that later occurred between the pursuit of abstraction in philosophy and the precision and concreteness of philology, the initial integrity and unity of philosophy and philology was not accidental: the periods of the rise and development of philology often coincided with the great periods of epistemological thought (for example, in the Hellenistic world - from Aristotle, in Europe in the 17th century - It happened after R. Descartes, in Germany in the 19th century - I. Kant). Qad. Chinese culture had its own philological traditions (Liu Se's works, 5th-6th centuries AD). But Qad. The philological teachings of India and China, and their achievements in this field, were not known to Europeans until recent times. The traditions of European philology relied entirely on Greek sources, ancient Sunyo philology. During the period of the Sophists (2nd half of the 5th century - 1st half of the 4th century BC), the field of literature is sufficiently separated from the non-literary environment to become the object of theoretical poetics and philology. Among the sophists, Protagoras, Gorgias, Prodicus and others made great contributions to the development of philological methods; Greek literary theory rises to a higher level with Aristotle's Poetics. In the Hellenistic period (3rd-1st centuries BC), philology was separated from the science of philosophy and passed into

the hands of specialists - the librarians of Alexandria and Pergamum: they were engaged in identifying and interpreting the corrected texts of ancient authors. Dionysius of Thrace (c. 150-90 BC) developed a theory of word groups that is still in use today. Among the scholars of the early Christian era, Origen and Jerome (the person who first translated the Bible into Latin) carried out enormous textological works on the original version of the Bible and the Greek translation. The tradition of Greek philology was continued in Byzantium in the Middle Ages, preserving its ancient status (study and interpretation of classic texts); After the fall of the Roman Empire (1453), Renaissance Italy inherited Byzantine philology thanks to the fleeing scholars. Qad. In Rome, philology was distinguished from phammatics, which studied the grammatical aspect of the language, spelling. The next stage of development of philology is associated with the treatises of Dante, Boccaccio, Petrarch, and Lorenzo Wall during the Renaissance. In these treatises, the true content of Aristotle's works is revealed, p. the written texts of Greek and Roman writers were studied and interpreted from a critical point of view. During the period when philology was depressed in Europe in the Middle Ages, during the 8th-14th centuries, Arabic philology began to develop on a large scale. In Arabic philology, the fields of linguistics and partly literary studies are developed. During this period, Kufa and Basra grammar schools (currents) emerged. Representatives of the grammar school of Basra: Khalil ibn Ahmad (8th century) and his student Sibawayhi developed the standards of the classical Arabic language in their works and compiled the first explanatory dictionary of the Arabic language. Sibawayhi divided the word groups into 3 main groups (noun, verb, letter) defined the syntactic relations of word groups. The representatives of the Kufa grammar stream devoted their works to the syntax of the Arabic language and the dialectal grammatical features of the Arabic language. In the 9th and 10th centuries, both grammatical streams rose to the level of an independent school of linguistics. On the basis of Basra and Kufa fammatic trends, the Baghdad fammatic school was created, and the Baghdad grammatical theory was created. Ibn Jinni (10th century), a representative of the Baghdad grammar school, paid attention to issues of etymology in his works. As the rule of the Arab caliphate spread to Syria, Egypt, Iran, Spain, and Central Asia, philologists developed in these regions under the influence of the philological currents of Kufa, Basra, and Baghdad. representatives also participated. English orientalist Ye. According to Brown, 30 of the 45 most influential representatives of Arab science and culture were representatives of non-Arab peoples. The emergence of the science of Turkic philology is also connected with the scientific activities of these scientists. Although philology was not considered a special science among the Turkic peoples in ancient times, there are many works related to it - dictionaries, grammars, treatises on literary studies, reviews, books on the history and ethnography of the Turkic peoples. written Mahmud Koshgari (11th century) occupies a special place in the history of culture and science of Turkic peoples. He is one of the scientists and the first to create the science of Turkic philology. His work "Devonu Lugotit Turk" covers almost all areas of this science: lexicon, phonetics and morphology of Turkic languages, classification of Turkic languages,

oral creativity of Turkic peoples, etc. The work also contains valuable information on ethnography, toponymy, and geographical location of Turkic peoples. M. Koshgari also founded the comparative study of languages. Mahmoud Zamakhshari (11th-12th centuries), nicknamed "Jorullah" ("Neighbor of God") by the scholars of his time, made a great contribution to the development of Eastern science and culture. He created more than 50 works related to philosophy, history, literary studies, folklore studies, linguistics. His work "Mukaddimat uladab" is important not only in terms of studying the history of the Arabic language and linguistics, but also in terms of studying the history of the languages of the Turkic peoples. In the dictionary part of the work, Persian and Mongolian translations of Arabic words as well as Turkish translations are given. In addition to these, more than 10 monolingual or bilingual explanatory dictionaries created by well-known or unknown authors in the 13th-19th centuries made a certain contribution to the development of the science of philology in Turkic languages. Also, Alisher Navoi's works "Muhokamat ullugatayn", "Mezon ulavzon", "Majolis unnafois", "Tarihi muluki Ajam", Babur's "Mukhtasar" ("Risolai aruz") and "Boburnoma", Abulghozi Bahadirkhan's "Shajarai turk" and "Shajarai tarokima" books, historical works of authors such as Munis, Ogahi, Bayani, Sheikh Ahmad Tarazi's book "Funun ulbaloga" on literary studies and other scientific works enriched the science of philology in a broad sense. In the 18th century in Germany, the philologist I.I. A new era of philology begins due to the emergence of Winckelmann's theory of "neohumanism" (new humanism). The question of the whole, whole image of the ancient world is raised with the same scientific rigor as it was during the Renaissance. German philologist philology A. Wolf uses the term "philology" as the name of the science of antiquity, the ancient world. During this period, philology was understood in a very broad sense and included not only the study of a specific national language and literature, but also history, philosophy, art, and even material culture. Philology. the department that studies cultural monuments and interprets the works of Greek and Roman authors was later called "classical philology". In the 19th century, the process of separation of philology from other disciplines intensified. As a result of the work of German philologists G. Uzener, E. Rode, U. von Wilamowitz Möllendorf and others, world history is separated from philology as an independent branch of science; at the same time, under the influence of romanticism and other Goya trends, along with "classical philology", "new philology" was born: Germanic studies (such as Ya. and V. Grimm), Slavic studies (A. Vostokov, V. Ganka), Oriental studies. At the same time, the Grimms, philologist Dietz, I. Dobrovsky, A. Vostokov and other philologists developed the comparative-historical method of language study. In the 18th and 19th centuries, the science of Turkic studies appeared as a branch of philology.

During the period when special departments of philology as above appeared and the comparative historical method began to be used, the concept of philology narrowed and became equal to linguistics. At the end of the 19th and the beginning of the 20th century, the concept of philology became clearer and included the study of languages and

literature; such disciplines as textology, source studies, paleography appear as auxiliary fields of philology, especially the formation and development of textology. played an important role in publishing manuscripts and works of classic poets (for example, Yusuf Khos Hajib, Atoi, Navoi, Babur; Pushkin, Lermontov, etc.). Linguistics and literary studies that make up philology, in turn, are divided into special fields: general linguistics, language history, study of modern languages; folklore studies is also included in the scope of literary theory, literary history, literary criticism and other philology, because folklore is also an art of speech. Modern philology reveals new problems of language and literature study and develops new methods; developing in a continuous connection with written sources typical of all periods of social life; philological research is being conducted with a deep scientific and critical approach to existing sources. The most important characteristic of modern philology is to limit its tasks to the tasks of such subjects as history, philosophy, art history, and culture history, which were separated from the bosom of philology, which was once considered a single, integrated science, and at the same time, creative cooperation with them.

Although the foundations of Uzbek philology go back to the times and works of M. Koshgari, M. Zamakhshari, it has developed in a unique way over the years! however, Uzbek philology in the current sense began to form at the beginning of the 20th century: Uzbek linguistics, literary studies, source studies and textual studies developed as branches of philological science. Current Uzbek philology is developing in every way as a component of world philology. M. Behbudi, Fitrat, Cholpon, Avloni, Elbek, Ghozi Olim Yunusov, A. Zahiri, Otajon Hashim, Hodi Zaripov, S. Ibrohimov, P. Shamsiyev, Sh. Khurshid, Olim Sharafiddinov, S. Mutallibov, Izzat Sultan, O. Usmanov, S. Usmanov, U. Tursunov, philology Kamal, V. Abdullayev, V. Zohidov, G'. Karimov, philology Abdullayev, A. Gulomov, H. Sulaymanov, Russian scientists Ye. Polivanov, K. Yudakhin, A. Borovkov, V. Reshetov, A. Kononov, A. Shcherbak, and others have significant contributions. Also Sh. Shoabdurahmanov, G. Abdurahmonov, A. Hayitmetov, A. Kayumov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, M. Askarova, Hl. Rahmatullayev, A. Hajiyeu, A. Abdugafurov, B. Valikhojhayev, N. Karimov, T. Mirzayev, B. Nazarov, E. Fozilov, E. Begmatov, H. Nematov, A. Nurmonov, N. Makhmudov and other contemporary Uzbeks have been participating in the development of philology with their scientific research. Philology has faced difficulties in the English-speaking world. Many Americans who studied in college do not know this word, and those who often repeat texts written by ancient Greek or Roman classics. Philology is a science of science. the king, the pride of the first great modern universities - grew up in Germany in the eighteenth and nineteenth centuries. In the twelve years before 1850, the most advanced humanistic research in the United States and Great Britain and its generative currents were sent through the intellectual life of Europe and America. philosophy of text (literatures such as classical and biblical studies, "Sanskrit and Arabic", "Medieval and modern European writers"); 2) the theory of the origin and nature of language and (3) the comparative structure and historical evolution of languages and language families study

»."The events that happened since 1800 were the origin of "comparative philology" , events that happened by Darwinists, such as "the common origin of humans", were based on the widest horizons and new knowledge. By the 18th century, English colonial leaders who were covering botany and Greek at school, realized that they had to do their work properly in classical Persian and even Sanskrit, they could not help noticing similarities between the oriental languages and their classical counterparts, but what was their meaning, and what was the origin of the distinction of language rather than of species?" The comparative philology of the study and development of true Indo-European languages quickly gained great respect in Germany."

Answer Grimm, true expressions of philologists and rare collectors, "There is no punishment, or so cruel to error. As mathematics or physics, in every sense a hard science, serious details have a cruel morality." Popular English Philology to all kinds of questions about, etymology, different types of pronunciation and grammatical usage, sources of Cockney vocabulary, words, original place and personal names, pronunciation, it is very interesting to hear things discussed in railway stations and smoking rooms you can read long letters about them in the press, sometimes decorated with random, misunderstood, misinterpreted and used interesting information No, the subject of English philology is street has a strange fascination for the man within, but almost everything that is thought and said about it is wonderfully and hopelessly mistaken.English Philology attracts a greater number of cranks and defects than the gijas, is the knowledge of a people who are probably less educated on any subject. the general ignorance about it is so profound that it is very difficult to convince people that it is really a well-known fact and a definite doctrine on linguistic matters." "If the nineteenth language if language is the century of discovery, the twentieth century is the century of language attachment. The nineteenth century distinguished language in several ways: it learned to see language as an amalgam of sounds, and therefore how to study sounds, to understand the diversity of language, and to understand the history or studied not as a piece of literature, but as a separate language. "Philology" was considered the best. "Other studies, especially innovations such as anthropology, began at the same time that philology helped the emergence of linguistics ... New studies were different from the century: in the century, linguistics once again united language. words and so He developed an interest in the study of the sounds that combine to form words, understood universals in other languages, and he reintegrated other languages with other languages, particularly philosophy and psychology."

REFERENCES:

1. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). Network-based Language Teaching: Concepts and Practice, Cambridge: Cambridge University Press.[1]
2. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.[2]

3. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman.[3]

4. www.ziyonet.uz.[4]

5. Jeyms Tyorner, Filologiya: Zamonaviy gumanitar fanlarning unutilgan manbalari, Princeton University Press, 2014[5]

2. Genri Vild, "Angliyadagi ingliz filologiyasi: Oksford universitetidagi imtihon maktablarida nutq so'zlagan birinchi dars", 21 fevral 1921.[6]

BOLALAR ADABIYOTIDA INTEGRATSIYA MASALALARI VA UNI O'QITISH METODIKASI

Abdualimova Xurshida Boltaboyevna

Jizzax viloyati Zafarobod tumani XTB qarashli 5-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Abdulla Qodiriy nomidagi JDFU Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 2 bosqich Magistranti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimiga integratsiya jarayonining kirib kelishi hamda ona tili va adabiyot darslarini o'qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darsliklarida berilgan mavzularni bir-biriga bog'lagan holda tushuntirish usullari va metodlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi texnologiyalar.



KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhimdir.

Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o'quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o'zlashtirishida yetakchi samara beradi.

ASOSIY QISM

Keyingi yillarda ta'limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko'plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o'qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta'lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko'ndalang qo'yildi. Xususan, A.G'ulomov, H.Ne'matov, B.Ziyomhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta'limidagi o'rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta'limida integrativ yondashuv xususida U.Musayev, D.Yo'ldosheva kabi pedagoglarning ilmiy izlanishlaridan ham ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, K.Mavlonovanning "Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari" bo'yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat ega [1.254].

"Integratsiya" - ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir [1.380]. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Ma'lumki, o'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o'z ta'lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta'lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi. Ta'lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog'lab o'qitish yaxshi natija beradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligini olaylik. Ushbu darslikda "Leksikologiya" bo'limini o'rganish uchun 39 soat ajratilgan. Bu bo'lim va undagi mavzularni adabiyot faniga bog'lagan holda badiiy asarlar, hikmatli so'z va maqollar, she'rlar orqali tahlil etilsa, bu ham ta'limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Quyidagi 6-sinf adabiyot darsligidan olingan parcha O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidan olingan bo'lib, o'quvchilar parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qilish orqali, har bir so'zning lug'aviy ma'nosini, salbiy va ijobiylik xususiyatini farqlab, badiiy asarni yanada teranroq anglab yetadi. "Ziqna bo'lmay, o'li!

– deb o'yladi xotinini so'kib, – azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi".



Umumiy o'rtta ta'lim bosqichlarida, mavzular oddiydan murakkabga tomon o'sib boradi. Masalan, 9-sinfda o'quvchilar ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o'z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo'llay olish uchun o'quvchilarda yetarli ko'nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o'qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o'tadi. Yangi mavzu bayonidan so'ng o'qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'lga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyidagi materiallardan foydalanishimiz mumkin:

1 - Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, dedi Gulchehra xo'rsinib, -bilishganda, bittasi emas, bittasi aytib qo'yardi. - Ha, rozi bo'ldi Abdulla, rosa to'olon bo'lardi. - Men amakidan qo'rqaman. Ko'zi yomon. Gulchehra Dadavoy amakining ko'zlarini ko'rsatmoqchi bo'lib olaydi, o'xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi. (O'.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin" asaridan)

2 Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. Bir tomonda uncha did bilan solinmagan bo'lsa ham, kattagina imorat, sirkor ayvon: uning ro'parasida hovuz, chog'roq shiypon, sim tortib ko'tarilgan tok, bog'cha, poliz... lekin bularning hammasi hovli egasining havasi zo'ru, hafsala va didi yo'qligini ko'rsatib turar edi: tokning bir necha novdasi simga o'z holicha tirmashibdi-yu, qolgani yerda yotibdi; meva daraxtlarining ostini, polizini sho'ra va g'unay bosib ketibdi. (Abdulla Qahhor. "Sinchalak")

В этой связи формирование ценностных ориентаций женщины и ее мотивации находится под влиянием постоянных изменений. Изменения затрагивают механизмы реализации социальных ценностей и ориентаций женщин в различных системах ценностей, оказывая влияние на их поведение и деятельность, их самоидентификацию.

¹⁹ Там же

²⁰ Гендерная политика президента Узбекистана Ш.Мирзиёева. URL: <https://kabar.kg/news/gendernaia-politika-prezidenta-uzbekistana-sh.mirziyeva/> (дата обращения: 09.09.2022)

²¹ Узбекистан делает важные шаги на пути обеспечения гендерного равенства. URL: <https://strategy.uz/index.php?news=745&lang=ru> (дата обращения: 09.09.2022)

ЛИТЕРАТУРА:

1. Анисимов, С. Духовные ценности: производство и потребление / С. Анисимов. - М., 1988. - 253 с.
2. Архангельский, Л. М. Социально-этические проблемы личности / Л. М. Архангельский. - М., 1974. - 221 с.
3. Бекмуродов М. Узбек менталитета. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. - б. 36.
4. Головаха, Е. И. Жизненная перспектива и профессиональное самоопределение / Е. И. Головача. - Киев, 1998. - С. 26.
5. Здравомыслов, А. Г. Люди его работа в СССР и после / А. Г. Здравомыслов. - М.: Аспект-пресс, 2003. - 154 с.
6. Тугаринов, В. П. О ценностях жизни и культуры. - Л., 1960. - 128 с.
7. Чагин Б. А. Субъективный фактор. Структура и закономерности. - М.: «Мысль», 1968. - С. 90.
8. Убайдуллаева Р. А.; Ата-Мирзаев О. Узбекистан в зеркале общественного мнения. Монография - Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2016. - Б. 351.
9. Ганиева М. Совершенствование системы подготовки специалистов по социальной работе в вузах Узбекистана: проблемы и новые возможности // Материалы международного форума «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». - Ташкент: РЦСАД, 2012. — С. 238-241.

**SPORTNING VOLEYBOL TURI BO'YICHA MASHQLARNING KETMA- KETLIGINI
TASHKIL ETISH**

O.S.Mirzayev

B.X.Ravshanov

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotasiya: *Ushbu maqolada voleybol sport turining yoshga doir jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, harakatlar ketma-ketligini nazorat qilish, hamkorlikda jamoa bilan ishlashni, to'pni his qila olish va yetuk barkamol inson bo'lib rivojlantirish usullari va metodlari to'g'risida bayon etadi.*

Kalit so'zlar: *Motivatsion, hissiy-irodaviy, sherik tuyg'usi, tendentsiya, reaksiya, tezlik-kuch, maxsus epchillik.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ПО ЭТАБНИЙ УПРАЖНЕНИЙ ПО ВОЛЕЙБОЛУ

O.C.Мирзаев

Б.Х.Равшанов

Бухарский инженерно-технологический институт

Аннотация. *В этой статье описаны пути и средства развития соответствующих возрасту физических навыков волейбола, контроля последовательности движений, работы в команде, ощущения мяча и развития разностороннего человека.*

Ключевые слова: *__Мотивационный, эмоциональный, партнер, склонность, реакция, скорость, сила, особая ловкость.*

ORGANIZATION OF VOLLEYBALL EXERCISES

O.S.Mirzayev

B.X.Ravshanov

Bukhara Engineering and Technology Institute

Annotation: *In this state, the ways and means of developing age-appropriate physical skills of volleyball, control of sequences of movements, teamwork, feeling the ball and the development of a different person are described.*

Key words: *motivational, emotional, partner, propensity, reaction, speed, strength, individual agility.*

Sportchining faoliyat samaradorligini oshirish muammosi yetakchi kontseptual qoidalar - sabab-natija munosabatlarning mavjudligi, sportchining motivatsion va hissiy-irodaviy ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilish; voleybolchilarning yosh toifalarida tanlangan sport turiga bog'liqligi, motivatsion faolligi va barqaror qiziqishining shakllanish darajasi to'g'risida turli fikrlarni aniqlash imkonini yaratadi.

V.G.Polovtseva [3], 7-10 yoshli bolalar o'zlarining sport mashg'ulotlarini tanlashlarini tushuntirish qiyinligini aniqladilar; ular suzish, konkida uchish, chang'i uchishga tayyor; xokkey va boshqa sport turlari. 11-12 yoshda ma'lum sport turlari bilan shug'ullanish uchun dastlabki beqaror motivatsiya paydo bo'ladi; ularning qiziqish doirasi sezilarli darajada quyi holda bo'ladi; 13-14 yoshda o'smirlar o'zlarining sport faoliyatini tanlashlarini umumiy ma'noda tushuntira oladilar, ammo faqat 15-16 yoshga kelib, motivatsiya chuqur ongli va barqaror holatta mujassam bo'ladi.[2]

Quyidagi mashg'ulotlarini hamjihatlikda ta'minlash zarurligini ko'rsatadi; o'yin usulidan keng foydalanish; jalb qilingan shaxslarning individual imkoniyatlari, talablari, ehtiyojlari va manfaatlar to'qnashuvini hisobga olgan holda. Har bir o'smirning fiziologik salohiyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda sport o'sishi istiqbollari har tomonlama o'rganishga ko'p vaqt ajratish samaraliroqdir.

Yosh sportchilar uchun o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillari:

- o'smirning jismoniy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlari maksimal darajada qondirish;
- salomatlik bilan bog'liq yo'nalishni ta'minlash (harakatni muvofiqlashtiruvchi fazilatlarni rivojlantirish, fizikani yaxshilash);
- o'quv mashg'ulotlarining ta'lim yo'nalishini amalga oshirish (sport sohasida maxsus va tarixiy bilimlarni shakllantirish);
- tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish (umumiy va harakat madaniyatini oshirish; jismoniy tarbiya va sportning ma'naviy, axloqiy va estetik qadriyatlarini o'zlashtirish).[4]

Muallifning fikricha, sport mashg'ulotlari samaradorligining asosiy yo'nalishlari:

- o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- fiziologik salohiyatni maksimal darajada rivojlantirish;
- atrofdagi odamlar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

Sportchining axloqiy-irodaviy xususiyatlarini yaxshilashga yo'naltirish va voleybolchilarning erkin faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini oshirish murabbiyning ahamiyatini tushunishiga bog'liq.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish. Bu ushbu sport o'yinining o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lib, natija jamoaviy harakatlar, jamoa a'zolarining harakatlarini muvofiqlashtirish va muvofiqlashtirish, sheriklar bilan o'zaro munosabatlarning samaradorligi bilan belgilanadi. Ushbu tushunchani har bir o'yinchi tomonidan individual o'zini o'zi takomillashtirishning etakchi sharti sifatida shakllantirish uchun o'qituvchi umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarlikni oshirishning shaxsiy vazifalarini belgilashi muhimdir.

A. Ismoilov, 1982 yil, 30-31-betlar ta'kidlaganidek, voleybolchilarning sport mahorati o'sishini ta'minlashning muhim sharti – boshlang'ich sport mashg'ulotlari bosqichida sportga barqaror qiziqishni shakllantirishdir. Muallif bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir choralari tizimini nazarda tutuvchi maxsus dastur ishlab chiqdi. Mustaqillik, o'ziga ishonch; pedagogik taktikadan foydalanish; o'z vaqtida ogohlantirish va xatolarni bartaraf etish. To'g'ridan-to'g'ri chora-tadbirlar - o'yin tafakkurini shakllantirish, individual vosita vazifalaridan foydalanish; qidiruv vaziyatlarni yaratish.[1]

Muvofiqlikning ikki turini belgilaymiz: birinchisi - o'yin faoliyati sohasida ("sherik tuyg'usi" asosidagi jamoaviy ish; individual texnik harakatlar va umuman o'yin kombinatsiyasini amalga oshirish; sheriklarni aniq his qilgan holda o'zaro tushunish. ' erkin harakatlari, shuningdek, ularning makon-vaqt va makon-kuch parametrlari), ikkinchisi - o'yindan tashqari aloqa sohasida (shaxsiy xususiyatlarning, xarakter xususiyatlarining, qiziqishlarining muvofiqligi).

Ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, sport mahoratining o'sishi bilan raqobatbardosh faoliyatning ushbu sohalarida o'yinchilarning bit-birini tushunish tendentsiyasi kuchayadi. Mushak yukining optimal miqdorini baholash va aniqlashning ob'ektiv mezonlarini aniqlash tavsiya etilgan mushak faoliyati rejimining tananing funksional imkoniyatlariga muvofiqligi to'g'risida ma'lumot olish imkonini beruvchi samarali uslubiy usullarni ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.[5]

Voleybolda mashq jarayonini oqilona qurish usullaridan biri o'yinchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir. E.V. Fomin [6] o'rganilayotgan o'yin texnikasi samaradorligining uni amalga oshirishda ishtirok etadigan turli mushak guruhlari kuchiga bog'liqligini ko'rsatadigan ma'lumotlarni hujum zarbasi texnikasini tahlil qilish orqali oldi.

Ushbu vosita harakatini boshqarishda yetakchi rol o'ynaydi vaquydagi omillarni o'z ichiga oladi:

- yetakchi harakatni muvofiqlashtiruvchi fazilatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari darajasi (tezlik-kuch, maxsus epcillik, sakrash qobiliyati va boshqalar);

tayanchdan itarishning optimal xususiyatlarini aniqlaydigan texnikaning fazoviy-vaqt va fazo-kuch parametrlarida orientatsiya qilish qobiliyati;

- hujum qiluvchi zarbada sakrash balandligini aniqlaydigan portlovchi kuchning namoyon bo'lish darajasi.

Hujum zarbasini bajarish uchun to'pga chiqishni ajratib ko'rsatadi va bu harakat harakatining funksional tashkil etilishini tahlil qiladi. Ushbu yondashuv uni amalga oshirishning his qilish va tuzatuvchi usullarini aniqlash imkonini berdi. Bashoratli bilan, vosita harakatining boshlanish vaqti doimiy harakat parametrlari bilan o'zgaradi. Tuzatish usuli translyatsiyalarning etarli davomiyligiga, harakatlanish vaqtini aniqlashga asoslangan. Yugurishning boshlanish momenti doimiy emas.

To'pga erishish texnikasi farqi:

- erkin harakatining umumiy davomiyligida;

- tayanchdan itarish muddatida;
- gorizontal uchish tezligining kattaligida.

L.L.Golovina va boshqalar, O.V. Demidenko; V.A. Kashirin voleybolchilarni sportga tayyorlash tizimini sifat jihatdan takomillashtirishning yetakchi yo'nalishlaridan biri bu ko'rsatkichlar ularning sport mahoratining o'sishini belgilovchi maxsus koordinatsiyalarni ishlab chiqishdir, deb hisoblaydi. Voleybolda sakrash qobiliyati katta ahamiyatga ega va o'yinning eng asosiy bosqichini belgilab beradi.[7]

Xulosa o'rnida, Sportchining erkin va mustaqil harakatlanishi uchun mushak kuchi va vaznining bir xil ko'rsatkichlari bilan voleybolchilar boshqa sport ixtisoslik vakillariga qaraganda yuqori sakrash balandligiga erishadilar. Mushak kuchini faol mushak tolalari sonini ko'paytirish va mushaklarni zarur energiya bilan ta'minlaydigan kimyoviy reaksiyalar tezligini ko'tarish orqali oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" professor A.D.Navikov
2. Pedagogika fanlari doctori professor L.P Matveev
3. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" Tursunov U
4. "Jismoniy tarbiyadan o'rta umum ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun dastur"
5. "Jismoniy tarbiya" A.Normurodov
6. "Voleybol" professor YU.N.Kleshev, professor L.R.Ayrapetyans
7. "Voleybol" o'yin qoidalari professor L.R.Ayrapetyans
8. www.Ziyonet.uz
9. www.wikipedia.uz www.sport.uz

**SPORTNING VOLEYBOL TURI BO'YICHA MASHQLARNING KETMA- KETLIGINI
TASHKIL ETISH**

Mirzayev Olim Saidovich

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
"Jismoniy madaniyat" kafedrasida o'qituvchisi*

Ravshanov Bexruz Xasanovich

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
"Jismoniy madaniyat" kafedrasida o'qituvchisi*

**TYPES OF FAMILY CEREMONY SAYINGS, USE OF FAMILY CEREMONY SAYINGS IN
PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS**

Nazarov Abduvosid Norboyevich

*Termiz State Pedagogical Institute
2nd year student of music education and art specialty*

Abstract: *This article describes the importance of the subject "Music culture" taught in general secondary schools in developing the spirituality and aesthetics of the young generation. Also, practical recommendations are given about the types of family ritual statements and their use in the process of professional training of music teachers.*

Key words: *"Musical culture" lessons, family ceremony songs, greetings to the bride, alla,*

Due to the fact that Uzbekistan as an independent country has entered the path of new socio-political, spiritual and economic development, the formation of public education based on the national idea, national ideology and the most democratic principles and achievements of world pedagogy has gained momentum. In the structural content of this national spiritual revival, the main place is to reform music education and upbringing in the priority of the national musical heritage, to form the musical culture of the young generation based on the immortal songs of our people, and to form a national artistic ideology. It is enough to study their music, especially their songs, in order to have a certain idea about this or that nation. Because the national music of each nation, in particular, its songs, is universal wealth, and it embodies the psyche, customs, history, ethnography of that nation, its well-established traditions and artistic heritage.

In this place, it is important that the music lesson is a formative education of the artistic thinking of students and young people through the medium of national music. Its purpose is to educate the feelings of sophistication, while forming the content of high human activities in the young generation, and to awaken love for the folk music to which

he belongs, to bring him to the level of a cultured person who can inherit it in the future and perceive universal musical values. It is necessary.

Family ritual songs during music education at school one should not be satisfied with only music lessons in learning. So it is permissible to use active forms of musical education. In particular students in music classes outside the classroom creating ensembles and participating in various holidays with his own concert program enough has such significance. Accordingly, students in the classroom, that is The songs learned during music lessons, the deepening of the knowledge and the strengthening of skills are often outside the classroom. it is done through music lessons that can be done at times. The activity of music circles is effective from the same point of view. Therefore, the goals and objectives are as follows:

- ✓ To find the content of students' interest in ritual songs with the help of music.
- ✓ Satisfying students' artistic need for national music in the process of music circles and on the basis of national holidays.
- ✓ It is necessary in the process of education and upbringing of students through national music formation of knowledge and skills.

At the heart of such events there is a special competition. They are necessary for the organization of music gatherings and national holidays from lessons and manuals to the order and the dress of the instruments for the performers is present. Special conditions and opportunities are created for the organization of singing groups at school. A special room will be allocated for ensemble training, and technical facilities will be provided.

There must be video and audio tapes praising family rituals condition, at the same time, the room is suitable for the purpose of various other equipment and can be equipped with decorations. Finished in the implementation of such activities It is necessary to ensure the active participation of members, because this is the goal of the students and has a great educational significance for uniting a friendly creative team. As the artistic director finishes his training, he greets the students to provide comprehensive knowledge, the basic meaning of each song being studied it is important to pay attention to understanding. In particular, the educational significance of the musical works that should be studied is in the songs the dreams and wishes of our people, worldview and emotions to the minds of the readers At first, the simplest methods of indoctrination are small - the people in the small kingdom It is important to start learning the songs. At the same time, the song teaching to sing correctly without breaking the skills of singing slowly – slowly to strengthen, students themselves express their feelings when they sing it is very important that they can do it.

Rituals, as a component of social life, develop in an inextricably linked manner with regular formal changes in its development. Therefore, some rituals or some elements specific to them, which do not meet the requirements of social life, are gradually being forgotten, or new, modern rituals appear in accordance with the content of the time.

Rituals are among the values of spiritual life that serve to satisfy the spiritual needs of people. A ritual is an event that consists of a set of actions that have entered into a strict tradition among the people, held specially for the purpose of wishing a person good health, prosperity in his life, bringing good luck in his daily life, or to record and celebrate important points of a person's life. . Songs and sayings performed during the ceremony, spells and prayers recited form the folklore of the ceremony. They are considered the verbal part of the ceremony. Rituals occupy a great place in social life due to their strong traditionality, formalization of various social events, and their desire to influence natural phenomena. The functions of having a spiritual and aesthetic effect of the ceremony, organizing and directing a social act are implemented directly through actions, words, and things that are considered to have the power of magic. Uzbeks are a nation rich in rituals. The social and cultural life of our people cannot be imagined without traditions, customs and holidays, which are inextricably linked with ceremonies. They are not only manifested as a separate form of life and a component of life, but also represent the national mentality of each nation, which expresses its uniqueness and uniqueness, and therefore form the basis of the historically formed national psyche of the nation, and define its image as a nation, like language and territorial integrity.

There are many types of family ceremonies, which accompany a person throughout his life. In particular, the Uzbek people have family ceremonies such as cradle wedding, muchal wedding, khatna (circumcision) wedding, marriage and mourning ceremonies. Although these ceremonies are called "family", they take on a public character because relatives - clans, kuni - songs, and friends - brothers can participate in them. Music plays an important role in family ceremonies.

In this, both vocal and instrumental music are used (the latter is an exception for the mourning ceremony) and their artistic tasks are different from each other. In particular, a musical ensemble consisting of trumpets, sunray drums and circles participates in wedding ceremonies, and it serves as both an artistic music and an information medium. Because the catchy tunes performed by the ensemble create an upbeat mood, invite to dance games and accompany it. A unique but important task is performed by means of speech, so we will pay attention to this aspect. Therefore, the purpose of each ceremony begins to emerge through the means of sayings, in other words, personal and "public" feelings are shared in the sayings of a family ceremony and have a special significance. Therefore, first of all, it is appropriate to describe the expression of crying in detail. Crying can occur in different situations, but its presence as a genre is mainly a family ritual, especially a mourning ceremony, which is carried out neatly and fully. The mourning ceremony includes customs and traditions that last up to a year, in which the relatives of the deceased (mainly wives and daughters) recite the laments throughout the year.

Among the signs characteristic of crying, we can mention the fact that the poetic lines do not rhyme, their content is adapted to the situation, and the thirist tones are in the

direction of the melody. This song is based on a three-act mungle tone structure. It starts with the 3-stage curtain. It is completed through the 2nd curtain to the 1st base (Iya).

It should also be noted that crying tones are an important classification quality of family ritual expressions, and according to the performance situation, they mean the semantic content of "farewell", "farewell". But we can see that the saying "crying" in wedding ceremonies is not natural, but rather artistic. Bright examples of it can be found in "Yor-Yor" related to marriage. Yor-yor song is performed by women during the process of carrying the bride to the bridegroom. The situation of saying it is because of the separation of the girl from her father's house, close relatives - clans, and family members. It begins and continues until it reaches the groom's house.

One of the songs traditionally performed at wedding ceremonies another one is "Hello Bride". In bridal greetings, poetic verses full of witty words and phrases are used, and each verse ends with saying "hello". When viewed from the point of view of the melody, it is known that they are also based on the melody of the 3-2-1 chord. In other versions of the bride's greeting, the melody is sung with certain variants. Therefore, the tunes of yor - yor and bride greetings are common to each other.

Alla is usually a crib in honor of the first-born child in the family the wedding ceremony is held, and from this time it is important in the baby's life two-three-year "cradle period" begins. The song sung with "Lullaby" is called "Alla" or "Lullaby". In these sayings, created by mothers, there are 4 words and phrases aimed at encouraging the child, as well as quatrains expressing the good intentions of the mother towards her child. For example, the song of Allah, which begins with "Aq Kozym", consists of five lines, four lines of which correspond to the verse, and the fifth line corresponds to the refrain "Alla". In this place, it is noticeable that the saying was created on the basis of a tone device. There is another type of Allah, which is performed in a "staged" way, without the "cradle situation". Therefore, it is necessary to have wide-breathed melodies and the use of catchy words.

REFERENCES:

1. Karamatov F.M. "O`zbek xalq musiqasi merosi" XX asrda I-kitob . Toshkent G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 1978 yil
2. Ibraximov O. o`zbek xalq musiqasi ijodi, - metodik tafsiflar. Toshkent 1992 yil
3. Sarimsoqov B. "O`zbek merosi va folklori" . Toshkent "Fan" 1986 yil
4. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi Dutar National Instruments and Performance Methods TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI
5. M Xo'jageldiyeva "Music as a Science and its peculiarities" International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology
6. M. Khojageldiyeva "THE IMPORTANCE OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS" "Экономика и социум" №4(95) 2022
7. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash Qizi "THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC" IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Халилаева Халима Ниетбаевна

*Магистр 2 курса спецполиграфии СМИ Каракалпакского государственного
университета им. Бердаха.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается положительное значение информационно-коммуникационных технологий в современной системе образования.*

Ключевые слова: *Современное, образование, информация, важное, положительное, учитель, ученик, процесс, поступок.*

В условиях ускорения процессов информатизации общества и образования большой эффект будет иметь проведение занятий со студентами с использованием цифровых средств в современной цифровой коммуникационной среде. Важным элементом является обучение учащейся молодежи информационно-коммуникационным технологиям (ИКТ) и формирование умения правильно их использовать в гармонии с общеобразовательной деятельностью на этапе начального общего образования, обеспечение ее эффективности. Поэтому для формирования универсальной образовательной деятельности на этапе начального общего образования должны быть предусмотрены: ознакомление с элементами в области применения ИКТ, включаемыми в любую деятельность, технологические умения, считающиеся элементами ИКТ-грамотности. не отдельные, а решая перцептивные и коммуникативные вопросы, необходимо обращать внимание на их формирование вместе с их применением.

Использование средств ИКТ помогает перейти от нерегулярного формирования универсальной учебной деятельности к целенаправленному и планомерному формированию. Безусловно, ИКТ можно (и нужно) широко использовать при оценке сформированности универсальной учебной деятельности. Большое значение для их формирования имеет информационно-образовательная среда, в которой педагоги и студенты планируют и фиксируют свою деятельность и результаты. Учебную ИКТ-грамотность следует различать как способность решать учебные задачи с использованием ИКТ-инструментов и источников информации в рамках потребностей и возможностей ИКТ-грамотности в начальных классах. Частью этого является общее знание ИКТ молодого студента. В большинстве случаев учащиеся начальных классов овладевают элементами общей ИКТ-грамотности в той мере, в какой взрослые могут использовать их в повседневной жизни и профессиональной деятельности.

Решение вопроса формирования ИКТ-грамотности следует отметить не только в программах отдельных учебных предметов, но и в рамках программ по

формированию универсальных знаний, что по своей сути связано с образовательной деятельностью. Следующее в изучении предметов в деятельности по личному познанию:

- критическое отношение к информации и выборочное ее принятие; • внимание уделяется формированию таких качеств, как уважительное отношение к информации о частной жизни других и к результатам информации [2]. В овладении учебной деятельностью предусмотрено:

- оценка состояния, хода и результатов деятельности, осуществляемой в информационной среде;

- использование результатов деятельности, помещенных в цифровую информационную среду, для оценки выполненной деятельности самих учащихся, их друзей и преподавателя и их корректировки;

- создание цифрового портфолио учебных достижений студента. ИКТ играют важную роль в общеобразовательной деятельности общего образования, и основные задачи педагогов-специалистов заключаются в следующем: в индивидуальных информационных архивах учащегося, в информационной среде образовательного учреждения, в региональных резервах информации и информации. образовательные ресурсы поиск обучающей информации; запись (запись) информации об окружающей среде и образовательном процессе, в том числе запись (работ студентов и т.п.) с использованием аудио- и видеозаписи, обучающая оцифровка; систематизация знаний, их организация и представление в виде концептуальных схем, карт, временных шкал и генеалогических деревьев; обучение созданию гипермедийных сообщений, цифровых данных, изображений и звуков, элементов сообщений, состоящих из текстов, набранных на клавиатуре; подготовка спектаклей с аудиовизуальной демонстрацией; Реальные и виртуальные конструкторы состоят из построения моделей объектов и процессов из конструктивных элементов. ИКТ являются важным инструментом формирования коммуникативной учебной деятельности. Для этого используются:

- создание гипермедиа-сообщений;
- выпуск аудиовизуального демонстрационного продукта;
- фиксировать ход командного/личного общения (аудио-видео и запись текста);
- общение в цифровой среде (электронная почта, чат, видеоконференция, форум, блог). Формирование у студентов умений правильно пользоваться ИКТ происходит в рамках системного подхода, в процессе изучения всех предметов учебного плана, а его результатом является интегративный результат обучения студентов. В целом это отражено в данной программе и в планируемых результатах освоения основной программы начального общего образования.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Махмудова Д.М., Таджибаев Б.Р., Холбоевна Г. (2020). Информационно-коммуникационные технологии развития творческой компетентности в процессе открытого обучения физике и математике. Международный журнал психосоциальной реабилитации, 24 (09).
2. Дусмуродова, Г. ИКС. (2020). Повышение стамески на квадрате в соответствии с основами метода трахтенберга. Международное научное обозрение по проблемам философии, психологии и педагогики, 13-16
3. Досмуродова, Г. ИКС. (2020). Факторы органической организации работы со студентами математических способностей. Непрерывное образование, 1, 32-37.
4. Махмудова Д., Содикова С., Дусмуродова Г. (2020). Формирование творческого мышления студентов педагогического вуза средствами информационных технологий при изучении математических дисциплин. Международный журнал психосоциальной реабилитации.
5. Досмуродова Г. Х. (2020). Развитие математики учащихся. Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук, 8 (2), 202–206.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA «TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODLARI

B.K.Mo'minov

TerDPI o'qituvchisi

N.O.Ataqulova

TerDPI Muhandislik grafikasi va dizayn nazaryasi

2-bosqich magistranti

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan xarakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v. b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'-soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu hususiyatlari bolalar tafakkurining konkret, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

Endi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak avvalo uning quyidagi to'rt turi qayd qilinishi lozim:

1. Borliqni idrok etish.

2. Badiiy qurish-yasash.

3. Naturaga qarab tasvirlash (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab haykal ishlash).

4. Kompozitsion faoliyat.

1. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari 1-4-sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya'ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklari taqdiridagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirleydilar.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishi kerak bo'lgan quyidagi yo'llar qo'llaniladi:

1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.

2. Borliq haqida o'qituvchining suhbatlari orqali o'rganish.

3. Savol-javob orqali o'rganish.

4. Borliqni rasmini chizish orqali o'rganish.

5. O'qituvchining pedagogik rasmi orqali o'rganish v.b.

O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi muhim. Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarini boshlang'ich sinflarda o'tkazish rejalashtirilgan. Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish uchun bolalarga turli-tuman tabiiy va badiiy materiallar zarur bo'lganligi sababli, o'qituvchi bu masalaga o'z e'tiborini ko'proq qaratishi kerak bo'ladi. O'qituvchi barcha bolalarni bunday materiallar bilan ta'minlay olmagan taqdirda bu ishga o'quvchilarni jalb etishi zarur bo'ladi. Tabiiy va badiiy, tashlandiq materiallarni to'plash uchun sinfda maxsus joy ajratilgan bo'lishligi, uni bolalar ishtirokida to'lg'izib turilishi kerak bo'ladi.

Qurish - yasash mashg'ulotlariga xos bo'lgan bir muhim jihat shundaki, bunda o'qituvchi va bolalar amaliy ishlarning bir vaqtini o'zida bajaradilar. Ayrim mashg'ulotlarda (ko'pincha 3-4-sinflarda) amaliy ish uchun hamma tayyorgarlik ishlari tugangani va topshiriq barcha bolalar uchun tushunarli bo'lganidan so'ng asosiy ishga o'tiladi.

Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalarni faqat bir xil material yordamida ishlash bilan chegaralab qo'ymasligi lozim. Ular ham tabiiy, ham badiiy, ham tashlandiq materiallar bo'lishligi mumkin.

Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi tabiiy va tashlandiq materiallar yordamida hashorat, qush, hayvon, odam kabilarning shaklini ko'rsatishi muhimdir. Masalan, ildizda ilon, kaltakesak, ilon baliq, yong'oq po'chog'ida toshbaqa kosasi, tuxum po'chog'ida pingvin, jo'xori o'zagida hayvon tanasi shakllarini ko'rish mumkin. Badiiy qurish-yasash ishlarida o'qituvchi materiallarning xususiyatlari (qattiq, yumshoq, mo'rt, og'ir, yengil, yaltiroq, egiluvchan v.b.), ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lishlik haqida ham bolalarga yetarlicha va keng tushunchalar berishi kerak bo'ladi. Turli materiallardan yasalgan narsalarni to'plab, ularni bolalarga tez-tez namoyish etib turish, ularning ijodkorligini faollashtiradi, tabiiy va tashlandiq materiallardan samarali foydalanishga yo'naltiradi.

Mashg'ulotlarning samaradorligi bolalarni uyda, ko'chada, sayohat vaqtida tabiiy va tashlandiq materiallarni ko'plab yig'ish hamda maktabga olib kelishga ham bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsda bu haqda bolalarga ko'rsatma berishi, yangi bajarilgan original qurish-yasash ishlaridan ularga ko'rsatib turishi yaxshi natijalar beradi.

3. Naturaga qarab tasvirlash boshlang'ich sinflarda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U bolalarga rasm va haykal ishlashning elementar qonun-qoidalarini o'rgatadi.

Naturaga qarab tasvirlash ikki qismdan tashkil topadi.

1. Narsaning o'ziga qarab rasm ishlash.
2. Narsaga qarab haykal ishlash.

Naturaga qarab rasm ishlash bolalarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan narsalarni o'ziga qarab rasmini ishlashni nazarda tutadi. Naturaga qarab rasm ishlash, naturani kuzatish, uning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlarini tahlil qilish, rasmlarni natura bilan solishtirish kabi metodlar asosida olib boriladi. Naturaning o'lchoviga qarab ularni chizish uchun yiriklarini sinfda 2-3 joyga, maydalarini har bir partaga bittadan qo'yib chiqish kerak bo'ladi. Mayda o'lchovdagi naturani, aytaylik bargni natura sifatida hamma joyda bir xil bo'lishi shart emas, ularni bolalarni rasm ishlash layoqatiga qarab har xil murakkablikdagi qo'ysa bo'ladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda bolalarni bosqichlar asosida rasm ishlashga o'rgatish muhim. Bunda bolalar, birinchi galda rasmni o'lchov jihatidan to'g'ri belgilash, ikkinchidan rasmni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Keyinchalik naturaning tasvirini ishlashga o'tiladi. Bunda rasm ishlashni ikki xil metodikasi qo'llaniladi:

- 1). Naturani yordamchi chiziqlar asosida belgilab olib rasmini ishlash.
- 2). Naturani bir yo'la bo'laklar shaklining rasmini ishlashdan boshlanib, so'ngra ularni umumlashtiriladi va bo'yaladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda yordamchi chiziqlardan foydalanish bilan bir qatorda o'q chiziq, simmetriya o'qidan foydalaniladi. Shunindek, narsalar tasvirini bironta geometrik shaklga tushirib olib ham ishlanadi. Xususan, ninachi rasmini ishlaganda avval uning qanotlarini to'rtburchak shaklida, soatni aylana shaklida chizib olinadi, keyinchalik uning tasvirini aniqlashtiriladi.

Boshlang'ich sinflarda rasm ishlash malakalarini hosil qilish ko'proq naturaga qarab rasm ishlash bo'limiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham bunday mashg'ulotlarda

o'quvchilarning o'quv qurollari (qalam, o'chirg'ich, bo'yoq, daftar v.b.) bilan to'g'ri munosabatda bo'lishga, ularni to'g'ri ishlatishga o'rgatish muhimdir. Rasm ishlash malakalarini shakllantirish esa ma'lum tizimda amalga oshirilgani ma'qul. Ayniqsa, to'g'ri-tik, to'g'ri-yotiq, to'g'ri-og'ma, egri kabi chiziqlarni chizdirish, ularni teng yoki teng bo'lmagan bo'laklarga bo'lishga o'rgatish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, shakllar, bo'yoqlar bilan yuzani qalam yoki bo'yoq bilan bir tekisda bo'yash yuzasidan bilim va malakalar hosil qilishda ham shu tartibga rioya qilinadi.

Yana shuni ham qayd qilish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hali rasm ishlash layoqatlarining pastligini hisobga olib, ularga ortiqcha, murakkab vazifalar berib bo'lmaydi. Narsalar rasmini ishlashda ularning hajmini yorug'-soya, perspektiva qoidalari asosida tasvirlash ham talab etilmaydi. Shuningdek, ular tomonidan chizilgan rasmga ortiqcha talablar ham qo'yib bo'lmaydi.

Yuqorida qayd qilinganidek, naturaga qarab tasvirlash, naturaga qarab haykal ishlashni ham nazarda tutiladi.

Bu mashg'ulotlarning yana o'ziga xos jihatlaridan biri bolalarda plastilin, loy, stek bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, loy (plastilinni) parchalarini o'zaro qo'shish orqali haykal ishlash, shuningdek, birgina yirik loy bo'lagidan ortiqcha joylarini olib tashlash orqali haykal hosil qilish metodikasini to'g'ri o'zlashtirib olishga qaratilganligidir. O'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarishda naturani barchaga to'liq ko'rinishiga erishish muhimdir. Shuningdek, naturani bolalar ishtirokida savol-javob orqali tahlil qilish, u haqda to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan mayda haykalchalar yasashga oid ishlardan namunalar ko'chirtirish, bu san'at turining milliy badiiy an'analarini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kompozitsion faoliyat mashg'ulotlari boshlang'ich sinflarda rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya va haykaltaroshlik kompozitsiyasi kabi qismlardan tashkil topadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlarida bolalar ko'proq yil fasllari, bayramlar, ommaviy tomoshalar, qishloq va shahar mehnatkashlarining kundalik mehnati, qush va hayvonlar hayoti kabilarga doir mavzularda rasm ishlaydilar. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi o'zining asosiy e'tiborini bolalar rasmlarida aks etadigan g'oya, rasm mazmuni, rasm elementlarini qog'oz yuzasida kompozitsion jihatdan to'g'ri savodli qilib tasvirlanishiga qaratishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tasvirlanayotgan jarayon yoki narsalarning hajmini yorug'-soya, perspektiva yordamida tasvirlash talab etilmaydi. Perspektiva qoidalariga rioya qilish talab etilmasada, biroq, yaqindagi narsalarni yirikroq, uzoqdagisini kichikroq tasvirlanishi lozim. Rangtasvir kompozitsiyasida tasvirlangan hayvonlar, qushlar, odamlar o'rtasidagi bir-birlari bilan bog'liqlikni, aloqadorlikni ham aks ettirish kerak bo'ladi. Kompozitsiyadagi barcha elementlar o'zaro bog'liqlikda tasvirlanishi shart. Bolalar rangtasvir kompozitsiyasini xarakterli xususiyatlaridan biri, ularning rasmlaridagi soddalik, jo'nlik, dunyoni o'zlaricha idrok etishlari va tasvirlashlari hisoblanadi.

Ulardagi bu xususiyatlar bolalar rasmlarida saqlanishi lozim. O'qituvchining bu masaladagi asosiy vazifasi bolalarning ijodiy faolligini oshirishga, rasmdagi g'oyani to'liq ifodalay olishga, rasmni emotsional ta'sirini kuchaytirishga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari naqsh ishlash, ertak va hikoyalar asosida illyustratsiyalar ishlash kabilarni nazarda tutadi. Bu borada naqsh ishlash mashg'ulotlari katta o'rinni egallaydi. Ayniqsa, yo'lsimon, kvadrat, to'rtburchak, aylana shaklidagi naqsh namunalaridan ko'chirib o'rganishga, o'zbek xalq amaliy san'ati namunalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor beriladi.

Bunda ko'proq naqsh kompozitsiyasi, rang, elementlarni to'g'ri tasvirlash, ularni ijodiy xarakterda bo'lishligiga, naqsh foni bilan uning elementlarining ranglari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, stilizatsiya masalalari o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi hisoblanadi.

Shuningdek, naqsh gulining nomlarini ham o'quvchilarga ko'rgazmali tarzda tushuntirib borish talab etiladi.

Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar yo'lsimon naqsh namunalaridan ko'chirsalar, keyingisida naqsh sxemalari va elementlari asosida, oxirida butunlay ijodiy naqsh chizadilar. Quyida kvadrat shaklidagi naqsh sxemasi va elementlari ko'rsatilgan.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida illyustrativ rasm ishlashga alohida e'tibor beriladi va u ertak, hikoya, masal, she'r kabi badiiy asarlar asosida amalga oshiriladi. Bunday mashg'ulotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Buning uchun avvalo bolalar yoshiga mos, qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiy asar tanlash lozim. Qolaversa, asar mazmunini to'liq bolalar ongiga yetkazish, undagi eng qiziqarli joylarni topish, asar bilan bog'liq yoki unga yaqin illyustratsiyalarni bolalarga namoyish etish, ularni g'oya, mazmun, kompozitsiya, rang jihatidan tahlil qilish kerak bo'ladi.

Ilyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarida o'qituvchi o'z e'tiborini bolalar rasmlarini ijodiy xarakterda bo'lishiga, asardagi personajlarni obrazli, o'zlariga xos xarakterli holatda tasvirlanishiga, ularni va tevarak-atrofdagi boshqa tasviriy detallarni o'zaro aloqadorlikda tasvirlashlariga qaratishi lozim. Shuningdek, ular kompozitsiya qoidalariga rioya qilish, obraz va voqealarga mos ranglar tanlash, rasmda planlikni e'tibordan qochimasliklari lozim. Imkoni boricha yaqindagi obraz va narsalarni yiroqroq, uzoqdagilarni kichikroq qilib tasvirlash lozimligini bolalar ongiga yetkazish va uni o'z rasmlariga tadbiiq qilishlariga yordam berish muhim.

Ilyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarining yana bir muhim xususiyati bolalarda fantaziya, obrazli tasavvurlarni o'stirishga qaratilganligidir. Bu sifatlarni rivojlantirishga 3-4-sinflarda ko'proq e'tibor beriladi. Ilyuyustrativ rasm ishlash, asosan ertak, hikoya, masal kabi adabiy asarlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli bolalar asardagi hayvonlarni odamlar qiyofasida tasvirlashlariga ruxsat etiladi. Ular kiyimlar kiygan, odamlar yashaydigan uylarda yashayotgan, ular o'zaro gaplashayotgan va mehnat qilayotgan hollarda tasvirlanishi mumkin. Bu o'z o'rinda bolalarni hayajonlantiradi, ijodiy ishlarini faollashtiradi.

Ma'lumki, illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlari odam, hayvon, qush va boshqa murakkab tuzilishdagi narsalarni tasvirlash bilan bog'liq. Ularni o'ziga o'xshatib savodli tasvirlash bolalarga ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Shuni hisobga olib bu materiallarga doir ko'rgazmali qurollarni (odam, hayvon, qush tasvirlangan) namoyish etish kerak bo'ladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxtiyor M., Ilxomjon M. GRAPHIC PROGRAMS USED IN THE LEARNING PROCESS, AS WELL AS THE CAPABILITIES OF AUTOCAD AND 3D MAX GRAPHICS PROGRAMS //Universum: texniceskie nauki. – 2021. – №. 11-5 (92). – S. 92-94.

2. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – S. 487-491.

3. Uralovich, Toshpulatov Fakhridin. "Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies." International Engineering Journal For Research & Development 6 (2021): 3-3.

4. Sadatov CH. Obuchenie risovaniyu obnajennogo mujskogo tela s peredney storony s karandashnym risunkom //Obshchestvo i innovatsii. – 2021. – T. 2. – №. 3/S. – S. 361-365.

5. Abduraximov L. QALAMTASVIRNING NAZARIY ASOSLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVATSIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – S. 1-5.

6. Oybekovna A. N. BO'LAJAK CHIZMACHILIK FANI O'QTUVCHILARINING GRIX NAQISH KOMPOZITSYALARINI TUZUSHDA GEOMETRIK YASASHLARNING O'RNI VA AMALIY AXAMIYATI //Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.

7. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – T. 1. – №. 1.

8. Karamatovich M. B. THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF FINE ARTS TODAY //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – C. 105.

9. Sulaymonovna X. S. QIRQIM VA KESIM BAJARISHDA O'QUVCHILARDA TIPIK XATOLARGA YO'L QO'YMASLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Ko'z bir tomonga qaraganda muguz qabarig'i yuqori qovoqlarni ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa o'sha yoqqa buradi. Shuning uchun yuqori qovoqlarni chizayotganda uning tashqi va ichki tomonlariga e'tibor beriladi. Ushbu misolda naturachining nigohi o'ngga va biroz yuqoriga qaragan. Ko'z shaklini detalni chizib chiqishda yorug'likning taqsimlanish qonuniyatlarini ham yoddan chiqarmaslik zarur. Oddiy sharoitda yorug'lik yuqoridan tushadi va yuqori qovoq qalinligi soyada, pastkisi esa yorug'likda qoladi. Talabalar, odatda yuqori qovoqning pastki yuzasini va pastki qovoq qalinligini bir xilda tuslaydilar, ba'zan esa qovoqlar qalinligini faqat chiziqlar bilan berib, umuman, ko'rsatmaydilar. Pastki qovoqni, ayniqsa, portret o'xshashligiga erishayotgan paytda juda ehtiyotkorlik bilan, qalamni qog'ozga tegar-tegmas qilib chizish kerak. Qoshlar rasmini chizishga jiddiy e'tibor beriladi.

Qoshlar xilma-xil: keng, tor, qalamqosh, baroqqosh, tekis, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi mumkin. Portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning to'g'ri yoritilishiga bog'liq. Ushbu vazifada naturachining qoshlari quyuuq, ko'zlari ustida osilib turibdi.

Tirik odamning boshini tasvirlash jarayonida shaklni detalli ishlash, detallarni umumlashtira olish rasmning badiiy ifodali chiqishiga yordam beradi. Detalni ishlash rasmning ifodali chiqishini ta'minlaydi. Ishning ushbu bosqichida bosh shakli va uning detallariga aniqlik kirita borib, bir yo'la tus berishga ham asos tayyorlashingiz kerak.

Qo'l va panjalarni ham ishlashda alohida ahamiyat beriladi. Bosga nisbatan qancha kichikligi aniqlanadi, panja bo'g'imlarining tuzilishi va joylashishi hisobga olinadi.

Akademik rasmda nafaqat shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodalilik tus berish vazifasi qanchalik to'g'ri hal etilganligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ko'pchilik talabalar "tus" atamasini noto'g'ri talqin qiladilar. Bu atama ustida biroz to'xtalib o'tish lozim.

"Tus" (ton) grekcha "tonos" so'zidan olingan bo'lib, u "kuchlanish" degan ma'noni anglatadi. Tus (ton) - yorug'likning fizik xarakteristikasidir.

"Tus" deyilganda bir yorug'lik manбайдan predmet yuzasiga tushgan yorug'likning miqdori va sifatini hamda predmet rangini tushunamiz. Predmetning alohida yuzalari yoritilishining o'zgarishi ularning yorug'lik manbaiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog'liq. Tus yorug'lik manbaining xarakteri (tabiiy - quyosh, oy nuri; sun'iy -elektr lampochkasi, sham) va yorug'lik tushayotgan predmet rangi bilan o'lchanadi.

Yorug'lik (nur) jism yuzasiga tushar ekan, u tus kuchini belgilaydi. Yuzalarning yorug'lik manbaiga nisbatan holatiga qarab, tus xarakteristikasi ham o'zgaradi. Rasm chizuvchilar, ayniqsa, tirik odam boshi rasmini chizishdek murakkab vazifani bajarishda ko'p chalkashadilar. Ular bosh shakliga tus berayotganlarida nur-soya gradatsiyasini, binobarin, hajmning yorishganlik darajasini ilg'ab olamaydilar. Masalan, ular qora sochlarni tasvirlayotganlarida bu sochlarni darhol bir tekis, bir xil rangga bo'yab qo'yadilar va qayerda soya, qayerda yarim soya va qayerda yorug' bo'lishini ko'rsatmaydilar. Vaholanki, qora sochlarga tushgan yorug'lik xuddi, aytaylik, burun uchiga tushgan yorug'lik kabi bo'lishi mumkin.

Juda ko'p hollarda naturani uzoq vaqt davomida tasvirlash natijasida talabada his etish (qabul qilish) jo'shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko'chirishga va chizayotgan rasmini "bo'yab tashlashga" o'tadi. Ushbu kamchilikning oldini olish uchun P.Chistyakovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tamiz: "Detal ustida uzoq ishlash kerak emas, chunki qabul qilish (his etish) jo'shqinligi yo'qola boshlaydi. Undan ko'ra boshqa, yon-atrofdagi qismni chizishga o'tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylarni ko'rish oson bo'ladi".

To'rtinchi bosqich - materiallikni hal etish va ishga yakun yasash-umtimlashtirish.

Ishning bu bosqichi eng qiyin va davomlidir. Bunda talaba vazifani ma'lum tugallikka yetkazishi, o'quv materialini qanday o'zlashtirib olganligi bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon etishi kerak. Talaba model shakliga tus berishda bir yoia uning materiallik tomonini ham ochib tuslay olsa, rasmning ifodaliligi yanada ortadi. Masalan, agar talaba naturachi ko'zining shakli va xarakterini to'g'ri tasvirlasa-yu, ko'zlarga joziba bermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko'zlarni tasvirlar ekan, kiprik va teri, shuningdek, namlangan ko'zlar jozibasi kabi omillarni to'g'ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko'zlar jozibasi deganda shu narsani tushunish kerakki, ko'z soqqasi doimo ko'z yoshlari bilan namlangan bo'ladi. Agar rassom ularni tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko'zining ishonchli va ifodali chiqishiga erisha olmaydi.

Shaklga tus berish va materiallikni ocha borib, sekin-asta soch, qosh, mo'ylov qo'l va kiyimlar tusini kuchaytiramiz. Bu yuz, soch, qo'l, kostyum kabilar xususiyatini ochishga yordam beradi. Rasmda materiallikni ocha borib, shaklning plastik xarakteristikasini aniqroq ifodalashga harakat qiling, ba'zi joylarda paydo bliadigan ola-chiporlardan cho'chimang. Bunday hollarda P.Chistyakov o'quvchilarga shunday der edi: "Tasvirlash jarayonida bir joydan ikkinchi joyga o'tayotganingda butun shaklni ko'zdan qochirma, darrov umumiylikka intilma, balki detallar ichiga kirib ket, dastlabki ola-chiporlardan

qo'rqma, uni umumlashtirish uncha qiyin ish emas, asosiysi -umumlashtirilsa bas. Shaklning hajmini berishga intilish sening chiziqlaring, chizgilaringni jonli va ifodali qiladi”.

Oxirgi bosqichda qilingan ishga umumiy yakun yasash kerak. Shu yerning o'zida tasvirning holatini tez-tez tekshirib borish lozim. Qilingan ishda yakun yasash bosh nisbatlari, shakl xarakteri, hajm ifodasining isihonchliligi va tus berish nisbatlarining to'g'ri ekanligini tekshirishdan boshlanadi.

Eng avvalo, ramming uyg'unlashuvini tekshirish kerak. Shaklni detalni ishlash jarayonida siz rasmni surib yuborgan bo'lishingiz, detallarning o'zaro bog'lanishi yo'qolgan,shaklga tus berish anatomik tuzilishiga putur yetgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, biror joyda unga yangidan chizgi ish, kontur bo'yicha esa ifodani bo'rttiruvchi chiziq tortish kerak bo'lar. Shuningdek, har bir detal shakli xarakterini fekshirib chiqish zarur, chunki ular nafaqat bosh shaklining umumiy tuzilishini to'g'ri tasvirlash uchun, balki odamning obrazli xarakteristikasini bo'rttirib ko'rsatish uchun ham kerak.

Shundan so'ng tus berish vazifasi to'g'ri hal etilganligini tekshirish ak. Bu o'rinda naturada eng to'q va eng yorug' joylarni belgilab cniqish, ularni yarim soyaga taqqoslagan holda tasvirni umumiylikka keltirish lozim. Detaillarni ishlash darajasiga alohida e'tibor berish zarur.

Bosh va qo'l shakli qismlarini ishlash paytida uning umumiy yaxlitligi -uyg'unligiga putur etkazib qo'yish mumkin. Masalan, quloq juda ham qiyin, peshona qism haddan tashqari serajin va qoraytirib yuborilgan, lar bir-biridan keskin ajralib qolgan bo'lishi mumkin va hokazo. Unday yuz bermasligi uchun ishning yakunlovchi bosqichini amalga oshirish kerakki, bunda boshning qismlari yagona butunlikka erishiladi. Shakl haddan tashqari maydalashib, ajinlar ko'payib ketgan ajinlarni umumlashtirish, yorug'likni yaxlitlash, yorug'lik manbaiga qarab, uni bir tekisda uzoqlashayotgan holatga keltirish lozim; alohidagi qismlarga shunday tus berilsinki, ular umumiy,butunlashuvdan chiqib ketmasin. Tasviriy san'at qonun-qoidalariga ko'ra uzoq plandagi detallarga kamroq, yaqin plandagilarga esa ko'proq ishlov berilishi lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda bo'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar hosil qilmasligi, uzoq plandagi yorug'lik va soya kontrastlari inga "chiqib" qolmasligini tekshirib olish kerak. Bunday hatolarni oson ilg'ab olish uchun tasvirga ko'proq uzoqroqdan turib qarash kerak.

Portretni qo'llari bilan ishlashning metodik ketma-ketligiga yakunyasalayotganda shu narsa esdan chiqarilmasligi kerakki, ishning har birchizig'iga yetarli darajada vaqt ajratilishi kerak.

Tasvirlashning metodik ketma-ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga uzluksiz, har bir bosqich alohida qanday hal etilishini bilgan holda ishonch bilan ishlash imkoniyatini beradi. Rasm ishlashda amaliy tajribasi bo'lgan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega boia boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga, ba'zilar o'ylagandek, har kim o'z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvirlash jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina ega bo'lish mumkin.

Tirik bosh rasmini chizish mashqlaridan keyin bir qator boshlarni yelka kengligi bilan birga chizib ko'rish kerak. Bu vazifalar boshning yelka kengligi bilan bog'lanish qonuniyatlarini o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Bunday mashqlarni bajarishda bo'yin va yelka qo'llarning plastik xarakte-ristikasiga alohida e'tibor beriladi. Dastlab boshning bo'yin va yelkaga nisbatan holati aniqlab olinadi, ya'ni uni yelka kengligining romb sifat maydonchasiga to'g'ri "o'rnashtiriladi". Shundan so'ng o'ng va chap tomondan ko'krak-o'mrov suyagining plastik xarakteristikasi aniqlanadi.

O'mrov o'simtalarining joylashish holati kuzatili, bo'yinturuq chuqurchasiga nisbatan tors ko'krak qafasi va bosh,qo'l holati tekshiriladi. Agar natura topishning iloji bo'lmasa, bunday holatni ko'zguga qarab, chizish ham mumkin.

Tirik odam boshidan muntazam ravishda xomaki rasm va chizgilar qilish zarur. Bunday xomaki rasmlar odamning butun tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, shuningdek, hayotni real tasvirlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Realist rassom insonning barcha go'zalliklarini tasvirlyay olishi kerak. Davomli rasm chizish talabani yordamchi chiziqlar, o'q chizig'i, konstruktiv asoslar yordamida tasvirlashga majbur etadi. Talaba davomli o'quv rasmida asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvirlash qonuniyatlari va qoidalarga qaratadi. O'quv-akademik rasm chizishda talaba bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm turli yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasmi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish uchun chiziladi. Ijodiy rasm esa, olingan bilim va ko'nikmadan badiiy obraz yaratish uchun chiziladi. Shuningdek, talaba avval olgan bilim va malakasi asosida yangilik yaratadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quv rasmining ijodiy jihati ham bor. Xomaki rasm ham olingan bilim va malaka asosida yaratiladi. Xomaki rasmda talabadan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ulaning vazifasi, maqsad va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab olish kerak. Ko'pincha"xomaki" tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi - shaklning chiziqli konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar davomiylikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo bo'lishi mumkin.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, uncha muhim bo'lmagan narsalarni chetga chiqarib tashlab, e'tiborni asosiy narsaga qaratadi.

Xomaki rasm talabaniing mustaqil ishga tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Xomaki rasmlar talabani tasvir qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlari ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv-akademik rasm chizishda xomaki rasmlardan ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsad ko'zlanadi: maqsad avval olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish - tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - avval olingan bilim asosida natura bilan buyum haqida mantiqiy fikrlashdir. Talaba xomaki rasm chizish davomida ushbu natura, uning shakl qurilishi, konstruktiv tuzilishi, anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zaxirasidan foydalanadi.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz bu ish samarasiz bo'ladi. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirishni, ma'lum bir uslubiy bosqichlarni taqozo etadi. Birinchi kurs talabalari uchun ancha yengil, yuqori kursdagilarga esa murakkab o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyani beradi. Birorta rassom yo'qki, xomaki rasm chizish uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsin.

O'tmishdagi mashhur rassomlar o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berganlar. Italiya rassomi Chennino Chennini o'zining "Rangtasvir haqida asar" kitobida shunday yozgan edi: Doimo, biror kunni kanda qilmay, biror-bir narsaning rasmini chiz; bu senga juda katta foyda keltiradi. Hayotda biz bir-biriga aynan o'xshash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni ilg'ab olish, ushbu odamning o'zgacha xususiyatini topa olishdan iborat. Shuning uchun ham ko'proq kuzatilasi, ko'proq naturadan rasm chiziladi, muntazam ravishda xomaki chizgilar qilinadi.

Inson yuzini hayotiy, ta'sirchan, jonli tasvirlash realist rassom uchun o'ta muhim. Inson portretini tasvirlar ekansda, uning mimika muskullarining ishlashini asosli o'rganiladi. Bu foydadan xoli emas. Chunki, mimika muskullari orqali portret psixologiyasi o'rganiladi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi yosh rassomga bu odamga xos boigan eng xarakterli xususiyatlarni ilg'ab olish va badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. O'quv vazifalari portret san'atini egallashga ko'maklashadi. Odam boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga - ijodiy portret yaratishga o'tish mumkin.

Portret chizish san'atini egallashda eng qulay usul avtoportret chizishdir. Rassom o'z rasmini o'zi chizar ekan, ishni nihoyasiga yetkazish uchun qancha vaqt talab etilsa, ko'zgu oldida shuncha vaqt tura olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. 4-maxsus son "Chizmachilik" – T.: 1999.

2. Ro'ziyev E.I. Chizmachilik o'qitish metodikasi. – Urganch: UrDU, 2001.
3. Botvinnikov A. D. Puti sovershenstvovaniya metodiki obucheniya chercheniyu. – M.: Prosveshchenie, 1989.
4. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. XALQ AMALIY SAN'ATINING CHIZMACHILIK FANI BILAN BOG'LIQLIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.
5. J.Y.Yodgorov, T.R. Sobirov, N.J.Yodgorov Geometrik va Proyeksion chizmachilik Toshkent “Yangi asr avlodi” 2008-yil.
6. Tashimov, N. E., & Toshpulatov, F. U. (2018). Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method. www. auris-verlag. de.
7. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Fiziko-texnologicheskogo obrazovanie. – 2022. – T. 1. – №. 1.
8. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – S. 487-491.
9. Uralovich, Toshpulatov Fakhriddin. "Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies." International Engineering Journal For Research & Development 6 (2021): 3-3.
10. Abduraximov L. QALAMTASVIRNING NAZARIY ASOSLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVATSIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – S. 1-5.
11. Abduraximov L. X. i dr. OBUCHENIE DETEY GRAFICHESKOY DEYATELNOSTYU V SREDNE OBRAZOVATEL'NOY SHKOLE //Internauka. – 2019. – №. 47-1. – S. 34-36.
12. Baxtiyor M., Ilxomjon M. GRAPHIC PROGRAMS USED IN THE LEARNING PROCESS, AS WELL AS THE CAPABILITIES OF AUTOCAD AND 3D MAX GRAPHICS PROGRAMS //Universum: texnicheskie nauki. – 2021. – №. 11-5 (92). – S. 92-94.

BADIIY TA'LIMDA QALAMCHIZGILARNING AHAMIYATI

L.X.Abduraximov

TerDPI katta o'qituvch v/b dotsent

Olimjonov Sherdil O'tkir o'g'li

TerDPI II-kurs

Anotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'atda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalarini o'rgatish, metodlarini rivojlantirish hamda uyg'onish davri rassomlarining jahon tasviriy san'atiga qo'shgan hissalarini hamda xomaki rasm chizish maqsad va vazifalari haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *chizgi, yaxlit, san'at, tasvir, pedagog, rassom, natura, xomaki, gips, o'lcham, grafika, rangtasvir, "qisqa", "juda tez", "bir nigohda", "yashin tezligida", "bir zumda" tasvirlash.*

Xomaki rasm - odatda qisqa, ba'zan esa juda qisqa va o'ta cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'ziga boqliq bo'lmagan xolatlarda bajariladigan predmet dunyosining umumlashtirilgan to'liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalaniladi.

Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir - chikirlarsiz tipik va o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistik tasvirini umulashtirilgan, deb hisoblamoq kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko'p hollarda "yaxlit, ko'zga ko'rinib turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi".

Xomaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umulashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmdan boshlashdan avval o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat beradilar. Chunki, xomaki rasm muvoffaqiyat bilan topilganda naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chizgi - xomaki rasmga nisbatan ancha to'liq hisobdanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasmiga qaraganda ancha qisqa vaqt oraligida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo'lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini odatda rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga ko'yadigan talablariga boqliqdir.

Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitish kabidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarilishiga qarab chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o'rtasidagi oraliq bir vosita bo'lib qoladi. Boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, naturadan

chizilgan xomaki rasm ishida o'sha naturadan davom ettirilgan ish sekin-asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to'xtaladi.

Xomaki rasm bilan chizgi o'rtasidagi farq u yoki bu rasmni chizish uchun sarflanadigan vaqtdangina emas, balki asosan ish usulining o'zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan chizish orqali bajariladi. Xomaki esa nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullarni ham qo'llab chizilishi mumkin.

Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu hildagi usullari keyinchalik nafaqat umuman rasm chizishga o'rgatish, balki yuqorida aytib o'tilgan bo'lajak rassom uchun zarur bo'lgan sifatlar yiqindisini tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xomaki rasm va chizgilarga o'rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo'llaniladigan shaklan yaqin bo'lgan (yoki mazmunan shu kabi) ob'ektlardan foydalaniladi: 1) «o'lik» (tirik bo'lmagan) natura, (natyurmort) 2) o'simliklar, 3) hayvonlar, 4) inson.

Ta'lim uslubiyotini qisqa muddatli rasmlarda qurish uchun, ya'ni o'quv masho'ulotlari izchilligi va mazmuni va ularni hal qilish usullarini belgilab olish uchun har xil xomaki rasmlar ijrosining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib etish kerak, va birinchi navbatda, qisqa muddatli rasmlar ijrosi bilan (xomaki va chizgilar) davomli rasmlar ijrosi usullarida o'rtasidagi farq nimadan iborat ekanligini bilib olish zarur.

Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari.

Idrok etishning «Umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka» tasvirlash usuli ta'lim jarayonida bosqichlar bo'yicha davomli o'quv rasmini bajarishda o'z tasdio'ini topadi.

Tasvirlanayotgan predmet shaklini umulashtirilishining so'ngi yakuniy bosqichi - qoo'ozga tushirilgan narsani yaxlit birlikka yio'ish va birlashtirishdan butun rasm bo'ylab aniqlik kiritish va nur soya nisbatlarini bitta yaxlitlikka keltirish, ya'ni tasvirlanayotgan shakl va ana shu shakl turgan kenglikni tutashtirishdan iboratdir.

Naturadan uning o'ziga xos xususiyatlari bilan qisqagina xomaki rasm chizib olish asosan tez ko'rish va idrok qila bilish qobiliyatlarini o'stirish uchun mo'ljallanadi.

Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmni ijro etishlar ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm ustida ishlashning yakuniy bosqichi sifatida umulashtirish haqida alohida gapirishga to'o'ri kelmaydi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlash xomakilarning oltita turini belgilab olish imkonini beradi. Xomaki rasmlar va ularning turlari quyidagilardan iborat: -naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar;

-kombinastiya usuli (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz - xotira bo'yicha) bilan ijro etiladigan xomaki rasmlar;

-faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati musthkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar;

-insoning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik ob'ektlar va atrof-borliq hodisalar haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan boo'liq tasavvurlar bo'yicha ishlanadigan xomaki rasmlar;

-kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan tasavvur bo'yicha usullarini qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar;

-hayolga keltirish bo'yicha - biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, syujet va xokazo predmet va hodisalar haqida o'z tasavvurlarini jonlantirib tiklash asosida dastlabki umumlashgan tasvirning xomaki rasmlari chizish.

Xomaki rasmlarning ikkinchi, uchinchi va beshinchi turlari bitta umumiy alomatlar bilan birlashadi, chunonchi: xomaki rasm chizish bilan bir vao'tda sodir bo'ladigan yoki xomaki rasm chizishdan sal oldin bo'ladigan naturani ancha yuzaki va tez kuzatish bilan yuzaga keladigan majburiy alomat bilan.

Agar bunda ijro vaqti cheklanmasa, u holda bunday naturadan chiziladigan xomaki rasm chizgiga aylanib qolishi mumkin.

Bu shart-sharoitlardan bittasi-naturani kuzatish va xomaki rasm ijrosi uchun vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligidir. Bu o'z navbatida naturaning qo'zo'almasligi yoki qo'zo'alish darajasi (harakat tezligiga)ga boqliq bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xomaki rasm chizish usuliga eng avvalo ikkita omil ta'sir qiladi: vaqt va naturaning holati.

Bu o'zaro bir-biriga boo'liq omillardan tashqari ijrochi va uning ishlash qobiliyatiga (binobarin, xomaki rasmdagi tasvir xarakteri va sifatiga) shuningdek tashqi ob'ektiv shart-sharoitlar ham ta'sir qiladiki, ularga rasm chizuvchi moslashishi kerak bo'ladi (sinf, hona yoki ko'cha, ishlab chiqarish yoki transport, jamoa joyi, sport maydonchasi, yo'lka, sayilgoh va xokazolar).

Naturadan kuzatish bo'yicha xomaki rasm chizish faqat bitta shart bilangina, ya'ni natura umuman qo'zo'almas, harakatsiz turgandagina boshidan oxirigacha bajarilishi mumkin.

Bunday qiyofa natura eng avvalo, so'zsiz jonsiz predmet (masalan, san'at asarlari, haykaltaroshlik asarlari, me'morchilik inshootlari, bezaklar, sabzavot, meva, gul, daraxtlar, ba'zi manzara turlari, shuningdek maxsus qiyofa uchun turgan model (inson ham) bo'lishi mumkin.

Xomaki rasmning maqsadi naturani to'liqsiz umumlashtirilgan ko'rinishini aks ettirishdan iborat bo'lgani uchun rassom nisbatan ancha bamaylixtir ishlaydi. Agar maqsad amalga oshgan bo'lsa-yu natura hali qimirlamay turgan bo'lsa, u holda xomakilikdan chizgiga (lavhaga) o'tish mumkin. Bunda xatto qoqoz chetiga qo'shimcha, naturaning ba'zi bo'laklarini ancha batafsilroq chizgilarini ham chiqarsa bo'ladi (albatta, bunga zarurat tuo'lsa). Bunda: holatda vaqt omili ish xarakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar naturaning qo'zo'almasligi shartli va tasodif bo'lsa, ba'zi hollarda u vaqtinchalik bo'lsa, ya'ni natura istalgan paytda, rasm chizuvchi uchun no'malum bir soniyada o'z holatini, yuz qiyofasini, imo-ishorasini o'zgartirib qolsa va xatto nuqtai nazardan umuman yo'qolib qolsa u holda naturadan xomaki rasm chizishda ish xarakteri jiddiy tarzda

o'zgaradi. Bunday holat tasodflarga quyidagilarni keltirish mumkin: saylgoh o'rindio'ida o'tirgan kishi o'rnidan turib ketsa, yohud jimgina yotgan it birdaniga akillay boshlasa ushbu holat xomaki rasmini chizayotganda sodir bo'lishi mumkin.

Peyzaj xomaki rasmini (yoki chizgini) chizayotganda ob-havo yoki yoritilish holati o'zgartmasligiga ishonch hosil qilish kerak emas. Chunki, birdan shamol turib qolishi, tekis suv yuzasini to'lqinlar, osmonni to'satdan qora bulutlar qoplashi mumkin).

Tabiatda tirik natura rassom ustaxonisidagi kabi yoki sinfdagi o'quv ishi kabi bir maromda turmaydi. U o'z hayotida davom etadi va uning tabiiy, vaqtincha qo'zo'almay turishi darhol, ba'zida esa kutilmaganda aks holat kasb etib qolishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, aynan tirik modelning bunday qo'zqalmas shartlari, ya'ni tinch, bamaylixotir qiyofa rassomning kuzatuvchan ko'zlari uchun eng qimmatlidir. Aksincha, bir hil holatda maxsus turgan tirik model doimo o'z ifodaliligini yo'qotadi, chunki har qanday holatda ham sun'iylik mavjud bo'ladi. Buning ustiga o'sha sizga qarab turgan siymo ham ohir- oqibat charchaydi, bu esa uning qiyofasiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Shuning uchun ham xomaki rasmda qo'zqalmas tirik modelni muhrlab qo'yish uchun rassom doimo shay turishi lozim. Ishlash uchun mavjud vaqt davomida kuzatish va xomaki rasmni bajarish uchun har bir daqiqa, xatto har bir soniyadan unumli foydalanib qolish zarur bo'ladi. Shuning uchun usta rassomlar xomaki rasmlarni ishlashda "qisqa", "juda tez", "bir nigohda", "yashin tezligida", "bir zumda" tasvirlash kabi so'zlarni ishlatishlari ham bejiz emas.

Xomaki rasm chizishning muayyan maqsadi kuzatish natijasini bir zumda qoqozga aks ettirishdir.

Sinfdagi masho'ulotlarda, ayniqsa xomaki rasm chizishga o'rgatilayotgan dastlabki paytlarda o'quvchilar kuzatishga ham, rasm ijrosi uchun ham doimo etarli vaqtga ega bo'ladilar.

Lekin sinfdan tashqari paytda xomaki rasm ustida ishlash, ya'ni bir vaqtning o'zida ham kuzatish, ham chizish paytida (xatto muhim turgan natura ustida ishlanayotganda ham) to'satdan uzilib qolishi mumkin. Ba'zan rassom tezroq o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi, bir varaqqa naturaning tipik hamda xarakterli xususiyatlarini darhol aks ettira qolishga harakat qiladi. Kuzatish vaqti ijro vaqtiga to'o'ri kelib qoladi. Ana shunday holatda naturani ko'rish idroki bilan, ijro etish keskinlashadi. Ya'ni e'tiborni chalo'itmay turib mayda, ikkinchi darajali ikir-chikirlarga berilmay, darhol predmetning eng asosiy zarur tomonlarini ilo'ab olishga, eng oddiy vositalardan minimal darajada foydalanishga harakat qilinadi.

Eng avvalo, bir nechta ishonchli chizgilar bilan, (yoki tus beruvchi doo'lar bilan) bo'lajak tasvirning o'rni va o'lchamini- uning abrisini belgilab olish zarur. Ana shunga qarab asosiy qismlari, konstruktsiya va harakatlarini hisobga olgan holda naturaning butun massasini tushurib olish kerak.

Agar natura o'z qo'zo'almas holatini saqlab turgan bo'lsa, darhol belgilangan fikrlarni detallashtirishga kirishmoq, eng asosiy, xarakterli xususiyatlarni tezroq ilo'ab olmoq zarur.

Kombinastiyalashgan (dastlab naturadan, keyinchalik xotira bo'yicha) xomaki rasmlar chizish.

Natura harakatiga kela boshlashi, o'z holatini o'zgartira borishi bilan va rassom ko'zidan iz qola boshlashi bilan ana shu xomaki rasmni nihoyasiga etkazish uchun xotiradan ko'rish qobiliyatingizni ishga solishi to'o'ri keladi.

Naturadan boshlanib, so'ngra uning ishtirokisiz xotirada tugallangan xomaki rasm "Kombinastiyalashgan" hisoblanadi.

Kuzatish vaqtining qisqarishi enda xomaki rasm ustida ishlashni ham murakkablashtiradi va xotiraga zo'r berishni talab qiladi. Bunday holatlar amaliyotda juda ko'p uchraydi.

Xotiradan chiziladigan xomaki rasm chizish.

Uzluksiz, doimiy harakatda bo'layotgan natura holatini bri zumda aks ettirish ancha mushkul. Bunday paytda hammasini birdan nazardan qochirmay ilo'ab olish va darhol, hech kechiktirmay xotirangizga muhrlanganni qoo'ozga tushirish zarur. Ana shunda xotiraga muhrlangan ko'rinish o'z "yangiligini" yo'qotmaydi. Bunga misol qilib oldingizdan tez yugurib o'tayotgan yoki to'siqlar osha sakrab yugurayotgan sportchini ko'rishimiz mumkin. Bunday vazifani uddalash amalda mumkin. Buning uchun o'ta tez, bir nigohda harakatdagi ifodani ilo'ab olish kerak bo'ladi (masalan, yugurib borayotgan sport chining gavdasi, oyoqlari bosh va qo'llari harakati). Lekin bu o'rinda xomaki bajarilgan chiziqlarni bir erga to'plash, ya'ni komponovkalashni unutmaslik kerak.

Ko'rish qobiliyati kuchli bo'lganda, juda qisqa ba'zan esa bir soniyada xotiraga muhrlanadigan detallarni ham umumlashtirib yuzaga chiqarish mumkin.

Ana shu tarzda ijro etilgan xomaki rasm xuddi qoqozga muhrlangan xotira kabi bo'ladi. Bundan keyingi endi uning vazifasi-ko'rilgan narsa haqida eslatishdan bo'lak narsa emas.

Bunday xomaki rasmlarga tuzatish va qo'shimchalar kiritish faqat boyagi sportchining harakati takrorlangandagina (deyarli bir xil harakat), yana xotiraga olish yo'li bilan bajariladi.

Faqat ko'rib xotirada saqlash qobiliyatiga tayangan holda xomaki rasm ustida ishlash zarurati faqat tashqi shart -sharoitlar kuzatish imkonini beradigan vaziyatlardagina tuo'iladi. Masalan: shahar transportida sizning qarashingizda o'tirgan yo'lovchining boshi siz o'ylab qo'ygan kartina personajiga o'xshaydi va siz anchadan beri qidirib yurgan ob'ektingiz chiqib qoladi. Uni naturadan chizishning iloji yo'q, chunki u o'z nigohini olib qochishi, boshini burishi yoki qiyofasini o'zgartirishi, shuningdek transportdagi vaziyat to'o'ridan to'o'ri naturadan chizish imkonini bermasligi mumkin va xokazo.

Siz o'z oldingizga qo'ygan vazifalarni hal qilish uchun boshqa yo'lni tanlashingizga to'g'ri keladi. Buning uchun ko'rish qobiliyatingizni ishga solasiz: naturangizga sezdirmay uni kuzatasiz, o'rganasiz, xarakterli o'ziga xos xususiyatlarini (ayniqsa undagi ajralib turadigan xarakterli xususiyatlarini) eslab qolishga harakat qilasiz. Yo'lovchi o'z bekatida tushib ketdi. Shunda darhol, hech ham kechiktirmay cho'ntak albomingizni olib (aks holda xotirangizdan

ko'tarilib ketishi mumkin) o'sha yo'lovchi holatini qanday eslab qolgan bo'lsangiz, shundayligicha xotiradan xomaki rasmini chizib olasiz.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin rassom ko'rish xotirasini rivojlantirishi uchun harakatdagi odam, ayniqsa o'z xarakteri va harakatlanishi tezligi har xil bo'lgan bir guruh odamlarga qarab xomaki rasmlar chizishni talab etadi. (masalan, basketbol, futbol, xokkey kabi sport o'yinlari vaqtida, hayvonot bo'lidagi hayvonlarga qarab xomaki rasmlar chizish foydadan xoli emas.

Shuni nazarda tutish kerakki, kuzatish natijasida esda qoladigan obrazning sifatiga, uning barqarorligiga ko'plab sabab va vaziyatlar ta'sir qiladi. (idrok qilishning takrorlanishi, kuzatish faolligi va tezligi, shuningdek, zarurat tuqilganda ko'rilgan narsani eslab qolish qat'iyligi). Ayniqsa qisman biror holatda (yoki sxematik ko'rinishda) naturadan qoqozga tushirilgan chizgini diqqat bilan kuzatgan va o'rganilgan narsa xotirada yaxshi saqlanib qoladi.

Ko'r-ko'rona, hech qanday tahlilsiz, faqat ko'chirib qo'ya qolingan narsa odatda xotirada uzoq saqlanmaydi.

Tasavvur qilib xomaki rasm ishlash.

Tasavvurda xomaki rasm chizish naturani bevosita kuzatish bilan boqliq emas. U avval idrok qilingan, predmet olami va ongda muhrlanib qolgan hodisalar asosidagina ijro etiladi. Idrokka (qabul qilishga) nisbatan tasavvur yanada umumiyroq xarakterga ega. Ularda tafsilot kamroq bo'ladi va faqat predmet va hodisalarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvurda chizilgan xomaki rasm "o'zidan chiqarib" iborasiga yaqin va o'zining mantiqiyiligi, bilan bevosita naturaga qarab chizilgan xomaki rasmdan farq qiladi.

Tasavvurda rasm chizayotgan kishi uni qamrab turgan vaqt va natura holati kabi omillardan xoli bo'ladi. U bamaylixotir, butun diqqat-e'tiborini xomaki rasmga qaratib ishlashi, zarur ifoda va tasvirning ishonchligiga erishgan holda faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Eng oddiy vazifa - polda turgan oddiy stul rasmini tasavvurda chizish masalasini hal qilish uchun u ana shu stulning shaklini, uning konstruktiviyasini va asosiy o'lcham nisbatlarini eslay olish lozim.

Xo'sh, qaerdadir yuqorida va pastki nuqtai nazardan ko'rinadigan xuddi ana shu stul qanday ko'rinishiga ega bo'ladi? Predmet shaklining qurilishi qancha murakkab bo'lsa, ma'lumki, uni "o'zidan chiqarib" tasavvurda chizish ham shunchalik qiyin kechadi.

Rasm chizuvchi ongida (tasavvurida) predmetning kenglikdagi obrazini tiklash vazifasi turadi. Bunday tiklash jarayoni nafaqat predmet shakli haqidagi tasavvurni, balki uning qurilishi, nisbatlari, harakat yo'nilishi va tezligi kabi boshqa kenglikdagi nisbatlarini ham o'z ichiga oladi.

Masalan, agar odam qaddi-qomati kabi murakkab tirik shaklning naturasiz, o'zidan chiqarib xomaki rasmini (aytaylik bo'lajak kartina eskizi uchun) umumlashgan holda chizadigan bo'lsak, buning ustiga bu tasavvurdagi naturamiz tez harakatda, burilishda yoki boshqa holatda (aytaylik, cho'qqidan tezlikda tushib kelayotgan chano'ichi) bo'lsa-vazifa ancha murakkablashadi.

Xomaki rasm ijrosidagi oldin xotirada tasvir obrazini, uning qurilishini tasavvur qilish, umuman ushbu shakl ma'lum nuqtai nazardan qoo'ozga qanday o'lchamni egallashini ko'z oldimizga keltirishimiz kerak bo'ladi. Faqat shundan keyingina, odamning plastik anatomiyasini haqidagi bilimlarni xotiraga olib, "o'zimizdan chiqarib" bir varaq qoo'ozga harakat qalamsini belgilab olgandan keyingina, buning ustiga gavda, bosh, oyoq-qo'llar nisbati, ularning o'lchamlarini, harakat paytida qisqarish proporsiyalarini, yoritilish holatini hisobga olgan holda chizishni boshlash mumkin.

Ma'lumki, inson qaddi-qomatining "o'zidan chiqarib" xomaki rasmini chizish faqat inson tanasining qurilishi haqidagi bilimlar etarli bo'lgan taqdirdagina yaxshi amalga oshishi mumkin. Bunday bilim va ko'nikma esa faqat inson tanasini doimiy kuzatish va natura hamda tasavvur va xotiradan qisqa chizgilar chizish, shuningdek yalono'och va kiyimdagi modellardan muntazam ravishda foydalanish bilangina erishish mumkin.

Shuningdek, inson tanasining bosh, qo'l, oyoq kafti suyaklari kabi murakkab qismlaridan qilingan mashqlar ham yaxshi natijalar beradi.

Har qanday holatdagi va tez harakatlanayotgan inson tanasini "o'zidan chiqarib"(naturasiz) erkin va ifodali tasvirlay bilish faqat insonning plastik anatomiyasini, birinchi navbatda, skelet qurilishi va skelet mexanizmi harakatlarini yaxshi bilish natijasida "naturadan" va "xotiradin" qilingan xomaki rasmlarda mashq va yanada ko'proq mashq oqibatida yuzaga keladi.

Tasavvurda qilingan o'quv xomaki rasmlar insonning har hil xolatlarda, ya'ni harakatsiz va harakatlanayotgan holatlarini tasvirlash malakalarining to'ldirilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xomaki rasmlarni tasavvurda bajarishga o'rgatishga davomli o'quv vazifalaridagi o'tilgan mavzularning o'zlashtirilishini tekshirib ko'rish uchun yordamchi mashqlarga ko'p o'rin ajratiladi.

Bunday tasavvur bo'yicha xomaki rasmlar chizishning tekshiruv mashqlari o'quvchilarda "o'zidan chiqarib" ishonch bilan chizishda muhim qobiliyatni rivojlantirishga so'zsiz ko'mak beradi. Ayniqsa bu hol maqsad qilib qo'yilgan yangi va yangi qirralar tobora murakkablashib borganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'atning hamma tur va janrlarida tasavvurda xomaki rasm chizishning asosiy vazifasi - badiiy obraz yaratish ishida turtki bo'ladigan ko'mak, yordam ko'rsatishdir.

Naturasiz ishlanadigan xomaki rasmlar (ya'ni "o'zidan chiqarib") murakkab ijodiy fikrni yuzaga chiqarish uchun eng qulay texnik vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy san'atga o'rgatishda tasavvurda xomaki rasmlar chizish borasida o'quv dala amaliyotlarining ahamiyati kattadir.

Kompleks xomaki rasmlar (barcha usullarni qo'llagan holda).

Eng so'ngi va eng murakkab o'quv xomaki rasmlar turi bu - kompleks usulda bajariladigan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullarni hammasidan qisman foydalangan

holda (naturadan, kombinastiyalashgan yoki dastlab naturadan, keyin xotiradan, shuningdek faqat xotiradan va tasavvurdan) ijro etiladigan xomaki rasmlardir.

Kompleks usulni qo'llash zarurati asosan ko'pgina bir vaqtning o'zida harakatlanayotgan ob'ektlardan xomaki rasm chizishda paydo bo'ladi. Binobarin, bir guruh odamlar, ayniqsa xomaki rasmda guruhni tashkil etadigan odamlarning o'zaro joylashuvini xomaki rasmda qidirish va o'z o'rniga qo'yishda bu usulga murojaat etiladi.

Kompleks xomaki rasm chizishga o'rgatish rasm darslarida o'tkaziladi. Lekin amaliyotda u "Kompozistiya" o'quv kursida ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu xomaki rasmlarni shartli ravishda "Kompozistion" deb atash ham mumkin. o'z ijro usuliga qarab ular u yoki bu holatda naturani kuzatish bilan boqliqdir. Shuning uchun ularni hayolan ijro etiladigan badiiy obrazning kompozistion echimi- xomaki -eskizlar bilan chalkashtirish kerak emas.

Hayolan xomaki rasmlar chizish.

Hayolan xomaki rasmlar chizish-bu juda umumlashgan xomaki rasm - eskiz bo'lib, unda badiiy tasavurning muayyan grafik natijasi sifatida paydo bo'ladigan badiiy obraz gavdalanadi.

Rassom xayoloti ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi olingan tasavvurlari va undagi idrok etish zahirasiga asoslangandir. Rassom o'z hoxishiga qarab bu tasavvurlarni qayta va qayta shakllantirib, ularni kombinastiyalab, ular o'rtasida bo'lanish yasab yoki ularni bir-biriga zid qo'yib badiiy obrazning bir butunligiga, maksimal darajada ifodaliligiga erishadi.

Tasavvurlarning o'zi etarli darajada umumlashgan bo'lganligi sababli ham xayolot kuchi bilan qayta ishlangan xotirotlar idrok etish ob'ektidan ancha uzoqlashadi, lekin shu bilan birga u o'zining realistik tasvir uchun zarur bo'lgan alomatlarni saqlab qoladi.

Tasavvur qiling, bir-biri bilan yagona harakat yoki biror oddiy syujetda ifodalangan mazmun bilan boqliq ikki kishini "o'zidan chiqarib" (tasavvurda) tasvirlashdek oddiy vazifa ham tasavvur qilish, xayolotga berilishni talab etadi.

Mazmunning ma'no va mohiyatiga chuqur ta'sir qiladigan, ya'ni tasvir ifodasiga ta'sir qiladigan ikki shaklning o'zaro joylashuvi va ichki boqlanishi kabi juda ko'plab har xil variantlar tuqilishi mumkin.

Eng yaxshi variantni qidirib topishda ularni o'zaro bir-biri bilan taqqoslash zarur bo'ladi.

Rassom o'zi o'ylab qo'ygan ijodiy fikri uchun muayyan yorqin javob olishi kerak bo'lsa, xomaki rasmning asosiy alomatlari-uning umumiyashgani, mantiqiy jihatdan to'qriligi kabilar katta ahamiyat kasb etib qoladiki, ular tashqaridan qaraganda go'yo tugalsizdek ko'rinadi. Vaholangki aynan ana shu tugalsizlik badiiy tasavurning keyingi faoliyatiga ko'proq turtki bo'ladi, muallifni ko'proq ifodalikka undaydi.

Tugallanmagan xomaki rasm topilgan echimga dastlabki fikrga muvofiq tez va yaqqol ishonch hosil qilish, unchalik qiyinchiliksiz yaxshilash tomonga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bunda kiritiladigan o'zgaritirishlarni avvalgi variatlaridagi bilan solishtirish uchun aynan ana shu xomaki rasimga kiritish ham mumkin bo'ladi.

Nihoyasiga etkazilgan rasmdagi biror qismni texnik jihatdan o'zgartirish, qo'l yoki oyoqni biroz bo'lsada surish, tana yoki boshni biror tomonga burish, tana harakatini kuchaytirish anchagina qiyinlik tuo'dirishi ma'lum.

Qalamda engilgina ishlangan xomaki rasmda esa bu ish unchalik qiyinlik tuo'dirmaydi. Chunki bunda avval belgilab qo'yilgan narsani o'chirish yoki yo'q qilish zarurati tuo'ilmaydi. Oddiygina solishtirish bilan badiiy fikrning yangi, yanada ifodalibroq variantini topish imkonini beradi. Xomaki rasm-eskizni muddatidan oldinroq tugatib qo'yish keyingi ishga halaqit beradi, tasavvurni toraytiradi.

Davomli va uzoq muddatli rasm chizish bilan bir vaqtda tirik odam boshidan muntazam ravishda homaki rasm va chizigilar qilish zarur. Bunday homaki rasmlar nafaqat odam boshini tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, balki tasvirda real hayotni tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarur.

Realist-rassom insonni harakatda, uning barcha go'zalliklarini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm ustida ishlash talabani yordamchi chiziqlar, o'q chizili, konstruktiv asoslar yordamida tasvirni diqqat bilan va metodik bosqichlarda tasvir qurishga majbur etadi. O'quvchi davomli o'quv rasmda asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvir kurishning qonuniyatlari va qoidalariga qaratadi. Binobarin, u o'quv-akademik rasmda bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm o'rtasidagi farqni ocha borib ular turli yo'nalishga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasm bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yaratiladi. Ijodiy rasmda esa aksincha olingan bilim va ko'nikmalardan badiiy obraz yaratish uchun foydalaniladi. Shuningdek avval olingan bilim va malakalar asosida yangilik yaratadi.

Xomaki rasm ham olingan bilim va malakalar asosida yaratilib, rasmda endi o'quvchidan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ularning vazifalari, maqsad va yo'nalishlarini to'liq aniqlab olish kerak. Ko'pincha «xomaki» tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi, shaklning chiziqli-konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar. Bu albatta to'liq emas.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralilida kuzatilayotgan natura xaqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylik va har xil ishlanishda bo'lishi mumkin: ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va xokazo.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, rasm chizuvchini uncha mohiyati bo'lmagan narsalarni chetga chiqarib tashlab, asosiy narsaga qaratadi.

Xomaki rasm o'quvchida mustaqil ishga bo'lgan tayyorgarlik darajasini namoyon etadi. Xomaki rasmlar talaba tasviriy savodxonligi qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk ustoz rassomlarning xomaki rasm namunalari

o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv - akademik rasm chizish vazifalarida xomaki rasmlar ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi: Avval o'tilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish-bu tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - bu avval olingan bilimlarni hisobga olgan holda natura bilan buyum haqidagi mantiqiy fikrlashdir. Rasm chizuvchi xomaki rasm chizish davomida ushbu natura haqida, uning shakl qurilishi konstruktiv tuzilishi anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zahirasidan foydalanadi.

Dala amaliyoti davrida o'quv mashlulotlarining eng ko'p mahsudorligiga talabalar aynan xomaki rasmlar chizishda erishadilar. Bunda ular ham naturani o'rganish ham tasvirlashning butun texnik vositalaridan foydalana bilish tomonlarini namoyon etadilar.

Shuning uchun ham xomaki rasmlar agar rasm chizuvchi natura haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lganidagina foydalidir. Ma'lum vazifalar aniq yo'naltirilgan maqsad bo'lmasdan xomaki rasmlar chizaverish o'quvchini ijoddan bezdirib qo'yishi mumkin.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinstiplarsiz bu ish maqsadsiz bo'lishi mumkin. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirish ma'lum bir uslubiy bosqichlikni taqazo etadi. Dastlab o'quvchilar uchun ancha engil, o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

